sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Bu orqali qazib olinayotgan foydali qazilmaning sifat ko'rsatkichi yaxshilanishiga erishish mumkin.

Lahimning qatlamga nisbatan joylashuvi quyidagi rasmda keltirilgan.



**4-rasm. Lahimning loyihaviy qatlamga nisbatan joylashuv sxemasi.**

Taklif etilayotgan lahimlarning joylashuv sxemasi quyidagi rasmda tasvirlangan.



**5-rasm. Taklif etilayotgan lahimlarning joylashuv sxemasi.**

Bu sxemalardagi parametrlardan lahimning loyihaviy qatlamga nisbatan joylashuv sxemasida lahimlarning qatlamni qamrab olish ko'ndalang qirqimi  $15,72 \text{ m}^2$ , taklif etilayotgan lahimlarning joylashuv sxemasida esa lahimlarning qatlamni qamrab olish ko'ndalang qirqimi  $13,22 \text{ m}^2$ . Bundan ko'rinib turibdiki lahimlarning optimal joylashuvini aniqlash orqali lahimlarning umumiy ko'ndalang qirqimi  $2,5 \text{ m}^2$  ga kamaymoqda. Lahimlarning qatlamni qamrab olish darajasi esa o'zgarishsiz qolmoqda. Bu esa H2B qatlamidan qazib olinayotgan ruda sifatining sezilarli darajada ortishiga olib keladi. [4; b. 9-14]

**Natijalar.** Yuqoridagi rasmlar AutoCAD programmasida aniq o'lchamlar asosida

chizilib, lahimning, lahimning qatlamni qamrab olgan qismining va lahimning qatlamni qamrash qismi ya'ni parallelogramning yuzasi aniqlanib quyidagi jadvalga kiritildi.


Quyidagi jadvalda lahimlarni joylashuviga ko'ra lahimning qatlamni qamrash darajasi va ko'ndalang kesim yuzasi keltirilgan.

1-jadval


***Lahimlarni joylashuviga ko'ra lahimning qatlamni qamrash darajasi va ko'ndalang kesim yuzasining ko'rsatkichlari.***

№	Lahimning qatlamga nisbatan joylashuvi, sm	Qatlamning ko'ndalang qirqimi, m <sup>2</sup>	Lahimning ko'ndalang qirqimi, m <sup>2</sup>	Lahimning qatlamni qamrash ko'ndalang qirqimi, m <sup>2</sup>	Lahimning qatlamni qamrash darajasi, %
1	Dastlabki loyihaviy holatda	4,77	15,72	4,61	29,33
2	Taklif etilayotgan holatda	4,77	13,32	4,57	34,31
	Farqi	0	2,5 m <sup>2</sup> ga kamaydi	0,04	4,98 % ga oshdi

Урал10Р kombayn kompleksi bilan H2Б qatlamini qazilganda dastlabki loyihaviy holatga nisbatan 0,85 m vertikal pasaytirish evaziga lahimning ko'ndalang qirqimi 2,5 m<sup>2</sup> ga kamaydi, lahimning qatlamni qamrash darajasi 4,98 % ga oshdi.




**6-rasm. Lahimning loyihaviy qatlamga nisbatan joylashuv parametrlari.**




**7-rasm. Lahimning taklif etilayotgan holatda qatlamga nisbatan joylashuv parametrlari.**

Quyidagi grafikda lahimning joylashuvini lahimning qatlamni qamrash darajasiga bogʻliqligi keltirilgan.



**1-grafik. Lahim joylashuvining lahimlarning ko'ndalang qirqimi va qatlamni qamrash darajasiga bogʻliqlik grafigi.**



**8-rasm. Dastlabki holatda H2Б qatlami №7 paneldan qazib olinayotgan foydali qazilmaning sfat ko'rsatkichi.**

Bu rasmdan ko'rinib turibdiki dastlabki holatda H2Б qatlami №7 paneldan qazib olinayotgan foydali qazilmaning sfat ko'rsatkichi 11-16 % ni tashkil etadi. "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ dagi foydali qazilmani flotatsiya usulida boyitish dastgohlari 19-32 % li rudani boyitishga mo'ljallangan. Past foizli rudaga ko'p miqdorda boy rudani aralashtirib me'yorlashtirish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Yanada sfatli ruda qazib olish uchun puch va kambag'al tog' jinslarini qazib olish miqdorini maksimal darajada kamaytirish lozim.

**Xulosa.** Bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari va Tepaqo'ton tog'-kon majmuasidan qazib olingan foydali qazilmaning nobudgarchilik va sifatsizlanish sabablarini matematik hamda geometrik parametrlarni tahlil qilib quyidagilarni xulosa qildik.

1. Yuqoridagi chizma, grafik va jadvallardan ko'rinib turibdiki lahimlarning qatlamni qamrab olish darajasining maksimal ko'rsatkichi va nobudgarchilikning minimal ko'rsatkichi lahimlarning qatlamga nisbatan 0,85 m vertikal tushirishga to'g'ri keladi.
2. Bu orqali lahimning qatlamni qamrash darajasini 4,98 % ga oshirishga va puch-sfatsiz tog' jinslarining aralashishini 2,5 m<sup>2</sup> ga kamaytirish mumkin. Bu esa qazilayotgan har 1 pm lahimda 5 t puch va kambag'al tog' jinslarini qazib olishni kamaytirish demakdir.
3. Ya'ni hozirgi kunda qazib olinayotgandagi foydali qazilmani sfat ko'rsatkichi 11-16 % ni 25-30 % ga tenglashtirish mumkin. Bu esa H2Б qatlamidan Урал10Р kombayn kompleksi bilan qazib olinayotgan ruda sifatini 14 % ga oshirishga teng.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тиловов А. Камера №85, Панел №7, Н-П-а, Комб-131 Лахимининг қатламга нисбатан жойлашув схемалари. Ўзб. 2022. 4-с
2. ООО "Зумк-инжиниринг" Проект. Горнодобывающий комплекс Дехканабадского завода калийных удобрений на базе Тюбегатанского месторождения калийных

- солей. Том 3. Горно-механическая часть. Книга 4. Проект горного отвода. Пояснительная записка и чертежи. 12.171-ПЗ-ГО. Пермь: 2008. 80-87 с.
3. Д.Р. Махмудов, А.С. Исмаилов, Ф.М. Олимов, А.М. Хўжақулов “Дехқонобод калий заводи” АЖ Тепақўтон тоғ-кон мажмуасидаги нобургарчилик ва сифатсизланиш кўрсаткичлари. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. Volume 2. September, 2022, 310-s с.
4. Д.Р. Махмудов, А.С. Исмаилов, Ф.М. Олимов, А.М. Хўжақулов "Дехқонобод калий заводи" АЖ Тепақўтон тоғ-кон мажмуасидаги лаҳимларни оптимал жойлашувини аниқлаш орқали нобургарчилик микдорини камайтириш. *Инновацион технологиялар журналы*. Махсус сон. Январ, 2023, 75-с.

## DEVELOPMENT TECHNOLOGY FOR PRODUCING VANADIUM FIVE OXIDE FROM MINERAL AND TECHNOGENIC RAW MATERIALS

*B.R.Vokhidov<sup>1</sup>, O.A.Kayumov<sup>2</sup>, G.F.Mamaraimov<sup>1</sup>*

*1 – Navoi State University of Mines and Technologies,*

*2 – Karshi engineering-economics institute*

*E-mail: [oybekqayumov@mail.ru](mailto:oybekqayumov@mail.ru)*

**Annotation.** This article discusses the possibility of extracting vanadium pentoxide from mineral and industrial raw materials. Based on the study of this topic and the analysis of the results of the studies, the author came to the conclusion that medium temperature roasting of the ore is carried out by vanadium water-soluble sodium vanadate ( $\text{NaVO}_3$ ) and the subsequent leaching of the metal using sulfuric acid increases the vanadium extraction 76,5 to 90,2%. It was also revealed that in the process of firing vanadium as a binder material, the most effective reagent is technical soda. It was found that the solubility of sodium vanadate is more effective than the sulfuric acid medium than conventional aqueous leaching of the product. Nevertheless, a special combined technology of selective sintering and leaching of the cinder has been determined and worked out: the selective deposition of vanadium and its separation from unnecessary impurities and the calcination of the precipitate bring a high-frequency production of  $\text{V}_2\text{O}_5$  of 98-99%.

**Keywords:** mining and metallurgical waste, slag, vanadenite, limestone, vanadium pentoxide, roasting, leaching, recovery.

**Introduction.** The analysis of the current state of the technology of processing of vanadium raw materials shows that the best way to involve waste and ore raw materials into processing and to extract five or more of the acidic vanadium is to explore or create the best or worse solution and technology of clean vanadium.

**Objectives of the study.** At present, the demand for iron and its alloys in the world is increasing every year. Ferroalloys are of great importance for the production of strong refractory iron alloys. There is a growing demand for steel alloys containing vanadium. Therefore, in the conditions of Uzbekistan, great importance is attached to the extraction of vanadium and the production of various steel grades from it. In addition, vanadium is used as a catalyst in the production of sulfuric acid.

**Method used.** The scientific work uses modern integrated methods, analysis of scientific and technical data on the enrichment of vanadium ores, theoretical studies using analytical methods, experimental studies, chemical and physico-chemical methods, methods of spectrophotometric analysis, methods of magnetic enrichment.

**Research results.** Today, the problem of increasing the development of the processing of technogenic raw materials is important for the mining industry and includes the saving of mineral resources that are not renewable in nature. According to the diluted stock of vanadium-containing ore is sufficient for the production of large-scale industrial production. In the proposed development of a technology for extracting vanadium from ore, the technology of initial roasting of the ore and subsequent leaching of vanadium from the cinder was taken as the basis. The technology developed in this way (see Fig. 1.) is based on the roasting of vanadium ore in order to convert vanadium into water-soluble sodium vanadate ( $\text{NaVO}_3$ ) and subsequent leaching of the metal using sulfuric acid with an increase in the extraction of vanadium from 76.5 to 90.2%. As a result, the technology makes it possible to organize the production of vanadium. The technology for obtaining vanadium pentoxide from spent vanadium catalysts, developed and mastered in the sulfuric acid production shop of the Northern RU, does not provide the required amount of  $\text{V}_2\text{O}_5$ . Therefore, refractory vanadium-containing ores can become a source of obtaining vanadium in NMMC. One of these deposits is the Madani (Rudnoye) deposit.

Before sampling for technological research, the laboratory took 9 samples from different parts of the deposit and analyzed for vanadium content. The content of vanadium in the samples was in the range of 2000-9900 g/t [1. P.70]. The chemical analysis of the R-9 sample is presented in Table 1.

**Table 1.** Chemical composition of vanadium ores.

Component	( $\text{V}_2\text{O}_5$ )	Cu	$\text{SiO}_2$	$\text{Al}_2\text{O}_3$	$\text{Fe}_2\text{O}_3$	CaO	MgO	$S_{\text{com}}$	$S_S$	$C_{\text{com}}$	$C_{\text{org}}$
Component Content, %	0,93 (1,66)	0,28	80,5	5,1	3,5	0,8	1,6	0,5	0,1	1,1	1,0

The object of the mechanism is vanadium-exchanged ore with  $\text{NaCl}$  and  $\text{Na}_2\text{CO}_3$ . At a temperature of 800-850 °C, a reaction occurs in an oxidizing atmosphere, resulting in the formation of sodium peroxide  $\text{Na}_2\text{O}$ .





Figure 1. Technological scheme for the extraction of vanadium pentoxide from mineral and technogenic raw materials.

Gaseous chlorine will be removed. The resulting peroxide  $\text{Na}_2\text{O}$  reacts with vanadium according to the reaction [2. pp.23-25]:



The sodium vanadate formed as a result of the reaction is highly soluble in water. The firing process was carried out in different temperature conditions  $600-650^\circ\text{C}$  and  $700-800^\circ\text{C}$ . According to laboratory experience, it was determined that the optimal conditions for firing are  $700-750^\circ\text{C}$  for 4-5 hours and the flow rate of the  $\text{NaCl}$  reagent is 8-10%. At temperatures above  $750^\circ\text{C}$ , the mixture melts due to the formation of insoluble vanadium silicates. Below  $700^\circ\text{C}$ , the output of vanadium decreases [3. pp.16-33].

For the experiment we prepare the charge: 100 gr. ore supplement 5 gr. technical soda and mix. We substitute on the muffle furnace and carry out firing in different temperature conditions of firing from  $600^\circ\text{C}$  to  $850^\circ\text{C}$  for 2-5 hours. The firing results are shown in Table 2.

**Table 2.** The results of the kinetics of firing vanadium-containing raw materials. Initial content of vanadium 6400 g/t;  $t=700^\circ\text{C}$ . Consumption of technical soda  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  50 g/kg<sup>3</sup>.

№	Roasting time, Min	Quantity and weight of charge		Quantity of $\text{Na}_2\text{CO}_3$ , g/kg	Ogre mass	
		charge weight, gr	[V] mg/kg		Weight of cinder, gr	Cinder yield, %
1	50	100	6,400	5	98,5	93,8
2	150	100	6,400	5	95,7	91,1
3	200	100	6,400	5	93,8	89,3
4	240	100	6,400	5	92,6	88,1
5	300	100	6,400	5	91,3	86,9

It can be seen from the table that the optimal parameter for roasting vanadium ores is  $700^\circ\text{C}$ , at which it is well associated with technical soda with the formation of sodium vanadate [4. pp.67-72].

After firing, the resulting product - sodium vanadate is dissolved in aqueous solutions according to technological schemes, after which the insoluble part - the residue is dissolved already in a sulfuric acid solution in order to completely transfer vanadium into the solution. With the simplicity and efficiency of the water leaching scheme, it has one drawback - a relatively low extraction of vanadium into the solution during the leaching operation (40-45%) [5.p.30-36].

Samples of the first aqueous and sulfuric acid leaching dissolved and the results of the leaching are shown in table 3.

**Table 3.** Results of the kinetics of sulfuric acid leaching of cinder. Experimental conditions:  $\text{H}_2\text{SO}_4 = 55 \text{ g/l}$ , S:W= 1:3, (V)=6400 g/t.

№	Leaching time, min	Original product		Solution after leaching	
		[V], gr/t	pH	V, mg/l	E, %
1	30	6400	5,4	2785,6	43,5
2	60	6400	5,9	3592,3	56,1
3	80	6400	6,0	4389,7	68,6
4	100	6400	6,5	4987,9	77,9
5	120	6400	6,8	5385,9	84,2

It follows from the table that after firing at 650-700<sup>0</sup>C, obage cinder is leached under conditions of 40-55<sup>0</sup>C and in a phase ratio T:L = 1:3, in acidic solutions - with a sulfuric acid content H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> = 55 g / l.

In laboratory studies, the optimal leaching parameters were determined and the process time was 2 hours. At the same time, it was found that the degree of vanadium solubility (E, %) increases by 42.1% due to sulfuric acid leaching of the cinder, compared with aqueous leaching, and at the same time, the through extraction of vanadium (E, %) reached up to 84.2%. The results of sulfuric acid leaching of the cinder are presented in table 3.

To determine the optimal conditions for the leaching of metal and residual vanadium from three tailings with a residual vanadium content, a sample of tailings with a residual vanadium content of 0.51% (5100 g/t) was produced. The sample was produced under the established optimal conditions for roasting the ore and subsequent water leaching of the cinder [6. pp.221-224].

Metal leaching was carried out using sulfuric acid in thermostatically controlled reactors with stirrers at a stirring speed of n=500 rev/min and T:W=1:3. Upon completion of leaching, the pulp was filtered, the precipitate was washed with water at a ratio of S:W=1:3. The first filtrate and precipitate (after drying) were analyzed. Table 4 shows data on the kinetics of vanadium leaching at different temperatures and a constant initial concentration (H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>) = 40 g/l.

**Table 4.** Kinetics of sulfuric acid leaching of metal and vanadium from aqueous leaching tailings.

Experience conditions: S:W= 1:3; C(H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>) = 40 g/l; τ=2-4hours; initial content V=5100 g/t.

t	20-25 <sup>0</sup> C			40-50 <sup>0</sup> C			80-90 <sup>0</sup> C		
№	α, gr/t	E, %	time, min	α, gr/t	E, %	time, min	α, gr/t	E, %	time, min
1	2100	58,8	120	1100	78,4	120	980	80,8	100
2	1700	66,7	160	800	84,3	140	500	90,2	120
3	1500	70,6	200	800	84,3	160	500	90,2	120
4	1200	76,5	240	700	86,2	180	500	90,2	120

As can be seen from Table 4, from the point of view of vanadium recovery, increasing the leaching temperature from 20-25<sup>0</sup>C to 80-90<sup>0</sup>C allows you to reduce the leaching time from

4 to 2 hours, while the extraction of vanadium in the operation of sulfuric acid leaching increases from 76.5 to 90.2 % [7. pp.165-167].

After the transition of vanadium into solution, it is sent to the clarification process in order to remove fine-grained tailings, and the resulting product is separated through filtration into the cake phase and the purest vanadium solution. The cake is thrown into the tailing dump. The vanadium solution is sent to the selective precipitation of vanadium using an ammonia solution. At the same time, we extract the complex of vanadium precipitate, freed from non-delicate harmful substances. After that, the precipitate is dried at a temperature of 110-130 °C and sent to the last stage of purification from impurities by calcination. We calcinate the product at 550-600 °C for 60-90 minutes. to the formation of sandy V<sub>2</sub>O<sub>5</sub> with a degree of purity of 98-99% that meets the requirements of GOST. The resulting finished vanadium pentoxide was subjected to IR spectroscopy in order to clarify the exact determination of the composition of the product.

The difference between the proposed technology and the existing one lies in the fact that vanadium-containing ores are sent to direct leaching without preliminary roasting, according to which the degree of solubility of the base metal is very low and at the same time through extraction of vanadium is reduced. The use of a combination of aqueous and sulfuric acid leaching of vanadium cinder increases the volume of produced material by 2 times compared to the traditional scheme for processing vanadium by direct leaching of the ore. According to the developed technology and the results of this work, the following conclusions can be drawn:

- researched and developed a simplified technology for the extraction of pentoxyvanadium;
- the optimal reagent mode of dissolution of vanadium cinder by the sulfuric acid method was determined;
- initial aqueous leaching of the cinder followed by sulfuric acid leaching increases the degree of extraction of vanadium to 42.1%, while the through extraction of vanadium is achieved up to 84.2%;
- selective precipitation of vanadium with ammonium hydroxides followed by calcination ensures the production of purified V<sub>2</sub>O<sub>5</sub> with a purity of 98-99% that meets the requirements of GOST;
- a deep hydrometallurgical purification of the resulting vanadium pentoxide has been developed;
- a new technological scheme has been developed for the processing of mineral and technogenic raw materials with the production of a finished product.

## REFERENCES

5. B.R. Voxidov, A.R. Aripov, G.F.Mamaraimov, Sh.N.Turobov // Research of technological process of vanadium distribution in Uzbekistan // XI International correspondence scientific specialized conference «International scientific review of the technical sciences, mathematics and computer science» Boston.USA. June 10-11.2019.

6. A.S. Xasanov, B.R. Voxidov, G'.F. Mamaraimov, R.A. Xamidov, T.T. Sirojov, U.U. Xujamov // Issledovanie povыsheniya stepeni izvlecheniya i chistoty affinirovannogo palladievogo poroshka iz sbrosnyx rastvorov // Universum: texnicheskie nauke Vvypusk:9(66) sentabr Moskva 2019.
7. A.S. Xasanov, B.R. Voxidov, G'.F. Mamaraimov // Texnogen chiqindilardan vanadiy besh oksidini ajratib olish imkoniyatlarini o'rganish // Nauchno-texniceskiy jurnal Ferpi 2020. Tom 24. №3.
8. B.R. Voxidov, G'.F. Mamaraimov // Texnogen chiqindilardan vanadiy besh oksidini ajratib olish imkoniyatlari // O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika 16-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari 16-qism.
9. B.R. Voxidov, G'.F. Mamaraimov // Texnogen xomashyolardan vanadiy va palladiyni olish usullarini ishlab chiqish// O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika 22-ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari 16-qism.
10. G'.F. Mamaraimov, I.I. Isroilova // Izuchenie vozmojnosti izvlecheniya blagorodnyx i dragotsennyx metallov na osnove pererabotki otxodov zoloshlakov angrenskoy i novo-angrenskoy tes // Nauchno-metodicheskiy jurnal "Academy" № 11 (62), 2020 str:18.
11. A.S. Xasanov, B.R. Voxidov, G'.F. Mamaraimov // Texnogen xomashyolardan vanadiy va palladiyni ajratib olishning texnologiyalarini yaratish // Nauchno-texniceskiy jurnal Ferpi 2021. Tom 25. № 2.
12. B.R. Voxidov, A.E. Nurimov, G.F. Mamaraimov, B.M. Nemenenok // Razrabotka texnologii polucheniya pyatiokisi vanadiya iz mineralnogo i texnogenного сырыа // "X Forum vuzov injenerno-texnologicheskogo profilya soyuznogo gosudarstva" g. Minsk, 6–10 dekabrya 2021 g.
13. B.R. Voxidov, A.S. Xasanov, G'.F. Mamaraimov // Mis sanoati texnogen chiqindilaridan qimmatbaho metallarni ajratib olish texnologiyasini tadqiq qilish // Nauchno-texniceskiy jurnal Ferpi 2022. Tom 26. № 3.
14. G'.F. Mamaraimov A.S. Xasanov, B.R. Voxidov // Izvlecheniya vanadiya iz texnogenных resursov // Universum: texnicheskie nauke Vvypusk:12(105) dekabr Moskva 2022.

## УРАЛ-20Р КОМБАЙН КОМПЛЕКСИ БИЛАН “DKZ” АЖ ТОГ‘-КОН МАЙМУАСИ Н2А ҚАТЛАМИНИ ҚАЗИБ ОЛИШДА LAHIM SHIFTI VA OSTINING QIYALIK BURCHAGIGA NISBATAN OPTIMAL JOYLASHUVINI ANIQLASH

*A.S.Ismailov<sup>1</sup>, A.M.Xo‘jaqulov<sup>2</sup>, F.M.Olimov<sup>3</sup>*

*1 – Islom Karimov nomidagi ToshDTU “Ko‘mir va qatlamli konlar  
geotexnologiyasi” kafedrasida dotsenti,*

*E-mail: [ismailov.anvarbek1951@mail.ru](mailto:ismailov.anvarbek1951@mail.ru)*

*2 – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti katta o‘qituvchisi,*

*E-mail: [xujaqulovamirjon@gmail.com](mailto:xujaqulovamirjon@gmail.com),*

*3 – Islom Karimov nomidagi ToshDTU tayanch doktoranti*

*E-mail: [farusxon@mail.ru](mailto:farusxon@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Tepaqo‘ton tog‘-kon majmuasidan qazib olingan foydali qazilmaning nobudgarchilik va sifatsizlanish sabablari tizimli tahlil qilinib, nobudgarchilik va sifatsizlanishning asosiy kelib chiqish sabablari aniqlangan. Shu bilan bir qatorda sifatsizlanish va nobudgarchilikni kamaytirish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Kon lahimlarini qatlamda joylashtirishda optimal joylashuvi aniqlanib nobudgarchilikni kamaytirish ko‘rsatkichlari aniqlangan.

**Kalit so‘zlar:** Nobudgarchilik, sifatsizlanish, optimal joylashuv, sifatsizlanish, ustun, to‘ldirish, umumshaxta va ekspluatatsion nobudgarchilik, kon bosimi, qayta to‘ldirish.

## DETERMINATION OF THE OPTIMUM LOCATION IN RELATION TO THE SLOPE ANGLE OF THE SHELF AND THE BOTTOM WHEN MINING THE N2A LAYER OF "DKZ" JSC MINING COMPLEX WITH THE URAL-20R COMBINE COMPLEX

*A.S.Ismailov<sup>1</sup>, A.M.Xo‘jaqulov<sup>2</sup>, F.M.Olimov<sup>3</sup>*

*1 – Associate Professor of the Department of "Geotechnology of  
Coal and Stratified Mines" of Tashkent State Technical University  
named after Islam Karimov,*

*E-mail: [ismailov.anvarbek1951@mail.ru](mailto:ismailov.anvarbek1951@mail.ru)*

*2 – Senior teacher of Karshi Institute of Engineering and  
Economics,*

*E-mail: [khujaqulovamirjon@gmail.com](mailto:khujaqulovamirjon@gmail.com)*

*3 – TashSTU basic doctoral student named after Islam Karimov,*

*E-mail: [farusxon@mail.ru](mailto:farusxon@mail.ru)*

**Abstract:** In this article, the causes of spoilage and deterioration of mineral extracted from Tepaqo'ton mining complex are systematically analyzed and the main causes of spoilage and deterioration are identified. In addition, reasonable proposals for reducing degradation and failure have been developed. The optimal location of the working in layers was determined and the parameters for reducing losses were determined

**Keywords:** Failure, deterioration, optimal location, deterioration, column, filling, general mine and operational failure, mine pressure, backfilling.


**Kirish.** Lahimlarning optimal joylashuvini aniqlash orqali nobudgarchilik va sifatsizlanish miqdorlarini kamaytirish imkoniga ega bo'lish mumkin. Sifatsizlanish va nobudgarchilik ko'rsatkichlari bir-biriga qarama-qarshi ko'rsatkichlar hisoblanadi. Sifatsizlanishning ortishi nobudgarchilikni kamaytirish imkonini beradi. Aksincha nobudgarchilikning ortishi sifatsizlanishni kamaytirish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Nobudgarchilik va sifatsizlanish sabablaridan yana biri lahimlarning foydali qazilma qatlamini maksimal qamrab olmaganligi va qazish jarayonida lahim ostki burchaklarida foydasiz jinslarni qo'shib ketishi evaziga yuzaga kelmoqda. Buning yaqqol tasvirini 2-rasmda ko'rish mumkin. [1; b. 4].

Qiya, yotiq qalin qatlamli har qanday foydali qazilma qatlamini kamera-ustunli qazib olish tizimida lahimlarning qatlamga nisbatan optimal joylashuvini aniqlash orqali sifatsizlanish va nobudgarchilikni maqbul qiymatlariga erishish mumkin. Biz tadqiq qilayotgan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ tog'-kon majmuasidagi H2A qatlamini Урал-20P rusumli 15,5 m<sup>2</sup> ko'ndalang kesim yuzali kombayn kompleksi bilan qazish ishlari bajarilmoqda.


Bunday qalin, qiya va yotiq joylashgan qatlamlarni qazib olishda asosan ekspluatatsion sifatsizlanish va nobudgarchilik lahim shifti va ostida kuzatiladi. Aynan shuning uchun ham lahim shifti va ostining qatlam qiyalik burchagiga nisbatan maksimal qamrash joylashuv parametrlarini aniqlash kerak.

**Muhokama.** Dastlabki holat sifatida loyihadagi lahim shifti va ostining qatlamga nisbatan joylashuv sxemasini qabul qilamiz.



1-rasm. Lahim shiftining foydali qazilma qatlamiga nisbatan dastlabki loyihaviy

joylashuv sxemasi.



2-rasm. Lahim ostining foydali qazilma qatlamiga nisbatan dastlabki loyihaviy joylashuv sxemasi.

Qalin qatlamli gorizontall joylashgan konlarni qazib olishda lahimning qatlamga nisbatan optimal joylashuvi loyohadagi holatda maksimal qamrash parametriga ega. Shuning uchun gorizontall qatlamlarda lahim joylashuvini o'zgartirish shart emas.

**Natijalar.** 1-jadvalda lahim shifti va ostining qiyalik burchagiga nisbatan nisbiy ko'tarilish qiymatlari va aniqlash formulasi berilgan.


1-jadval

Lahim shifti va ostining qiyalik burchagiga nisbatan nisbiy ko'tarilish qiymatlari va aniqlash formulasi

Qatlamning qiyalik burchagi, $\alpha$ (gradus)	Lahim shiftining dastlabki holatga nisbatan nisbiy ko'tarilishi, H (m)	Lahim ostining dastlabki holatga nisbatan nisbiy ko'tarilishi, H (m)
0	0	0
1	0,07	0,015
2	0,14	0,03
3	0,21	0,045
4	0,28	0,06
5	0,35	0,075
6	0,42	0,09
7	0,49	0,105
8	0,56	0,12
9	0,63	0,135
10	0,7	0,15
11	0,77	0,165
12	0,84	0,18
13	0,91	0,195

14	0,98	0,21
15	1,05	0,225
<b>Universal formulasi</b>	<b>Hshift = 0,07*α</b>	<b>Hosti = 0,015*α</b>

3-rasmda Урал-20P kombayn kompleksi bilan "DKZ" AJ tog'-kon majmuasi H2A qatlamida lahim qiyalik burchagining optimal joylashuviga bog'liqligi berilgan.



**3-rasm. Урал-20P kombayn kompleksi bilan "DKZ" AJ tog'-kon majmuasi H2A qatlamida lahim qiyalik burchagining optimal joylashuviga bog'liqligi.**

**Xulosa.** Yuqoridagi jadval va grafiklarga ko'ra qatlam qiyalik burchagi ortishi bilan lahimlarning dastlabki holatga nisbatan vertikal ko'tarilish balandligi ham ortib bormoqda. Bunda qatlam qiyalik burchagining har bir gradusga o'zgarishiga lahim shiftining nisbiy ko'tarilishi 0,07, lahim ostining nisbiy ko'tarilishi 0,015 koeffitsiyentlarga ortishi aniqlanib lahim shifti va ostining qiyalik burchagiga nisbatan optimal joylashuvini aniqlash formulasi ishlab chiqildi.

Lahim shiftining dastlabki holatga nisbatan nisbiy ko'tarilishi  $H_{shift}$  (m) ni aniqlash formulasi quyidagi 1-formulada keltirilgan.

$$H_{shift} = 0,07 * \alpha \quad (1)$$

Lahim ostining dastlabki holatga nisbatan nisbiy ko'tarilishi  $H_{osti}$  (m) ni aniqlash formulasi quyidagi 2-formulada keltirilgan.

$$H_{osti} = 0,015 * \alpha \quad (2)$$

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tilovov A. Kamera №85, Panel №7, N-II-a, Komb-131 Lahimining qatlamga nisbatan joylashuv sxemalari. O'zb. 2022. 4-b.
2. ООО “Зумк-инжиниринг» Проект. Горнодобывающий комплекс Дехканабадского завода калийных удобрений на базе Тюбегатанского месторождения калийных солей. Том 3. Горно-механическая часть. Книга 4. Проект горного отвода. Пояснительная записка и чертежи. 12.171-ПЗ-ГО. Пермь: 2008. 80-87 с.
3. D.R. Maxmudov, A.S. Ismailov, F.M Olimov, A.M. Xo'jaqulov “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Teraqo‘ton tog‘-kon majmuasidagi noburgarchilik va sifatsizlanish ko‘rsatkichlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Volume 2. September, 2022, 310-s b.
4. D.R. Maxmudov, A.S. Ismailov, F.M Olimov, A.M. Xo'jaqulov "Dehqonobod kaliy zavodi” AJ Teraqo‘ton tog‘-kon majmuasidagi lahimlarni optimal joylashuvini aniqlash orqali nobudgarchilik miqdorini kamaytirish. Innovatsion texnologiyalar jurnali. Maxsus son. Yanvar, 2023, 75-b.

### KARYER KONTURI OLDI ZONALARIDA POG‘ONALARNING QIYALIGINI HOLATIGA PORTLATISH ISHLARINI TA’SIRI

*Sh.Sh.Zairov<sup>1</sup>, R.U.Nomdorov<sup>2</sup>*

*1 – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Texnika fanlari doktori, professor*

*E-mail: [sher-z@mail.ru](mailto:sher-z@mail.ru)*

*2 – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institute Texnika fanlari falsafa doktori, dotsent*

*E-mail: [rustamnomdorov@mail.ru](mailto:rustamnomdorov@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Maqolada karyer bortlari va pog‘onalarini tugalida turg‘un burchaklarni aniqlash bo‘yicha turli genetik sinfdagi temir ma‘danli konlarda pog‘onalar va bortlarni tugalida oxirgi turg‘un qiyalik burchagi o‘rtacha holati ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari pog‘onalarni deformatsiyalanish holatini kuzatish ishlari pog‘ona qiyaligining profilini davomiy holatida karyer konturi orti massivlarida bloklararo birikishini buzilish zonalarini chegara profiliga yaqinlashishi keltirilgan.

**Kalit so‘zlari:** karyer borti, pog‘ona, genetik sinflanishi, turg‘unlik,deformatsiyasi.

## THE INFLUENCE OF BLASTING WORKS ON THE STAGE SLOPE IN THE FRONT ZONES OF THE QUARRY CONTOUR

*Sh.Sh.Zairov<sup>1</sup>, R.U.Nomdorov<sup>2</sup>*

*1 – Doctor of Technical Sciences, Professor, Navoi State University  
of Mining and Technology*

*E-mail: [sher-z@mail.ru](mailto:sher-z@mail.ru)*

*2 – Doctor of philosophy of technical sciences, associate professor of  
Karshi Engineering-economics institute*

*E-mail: [rustamnomdorov@mail.ru](mailto:rustamnomdorov@mail.ru)*

**Abstract:** In the article, the average state of the final stable slope angle of the steps and boards in the iron ore mines of different genetic classes is considered in order to determine the stable angles at the end of the quarry boards and steps. In addition, monitoring of the state of deformation of the steps shows the approach of the profile of the step slope in the continuous state of the boundary profile of the inter-block connection failure zones in the massifs behind the quarry contour.

**Keywords:** career board, step, genetic classification, stagnation, deformation.

**Kirish.** Dunyoda karyerlarni chuqurligi oshishi bilan ish olib borilmaydigan bortlar va pog‘onalarning turg‘un qiyaligini ta‘minlash bo‘yicha qattiq extiyoj yuzaga keladi. Ma‘lumki, karyerlarning ish olib borilmaydigan bortlarini turg‘unligiga xuddi bort qiyalik burchagi singari ularni qiyalik konfiguratsiyasiga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Bort profiliga bog‘liq holda qiyalikni kuchlanishli holatini tadqiq qilish karyer bortlarini tugal konturini tanlashda katta ahamiyatga ega hisoblanadi va tog‘ jinslarini fizik mexanik xususiyatlarini o‘zgarishini hisobga olib, ya‘ni zaiflashish va yoriqdorlik yuzasiga ko‘ra bortlarni zonalarga bo‘lish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shunga bog‘liq ravishda pog‘onalar balandligini oshirish yo‘li bilan bortlar konstruksiyasini takomillashtirish va karyerni tugal konturidagi qiyaliklarga ratsional shaklni berish, hamda karyerlarda ish olib borilmaydigan pog‘onalarni turg‘unligini oshirish uchun konturli portlatishni samarali parametrlarini ishlab chiqish masalalarini yechishga alohida e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Tadqiqotlar ko‘rsatganidek karyer bortlari va pog‘onalarni tugalida turg‘un burchaklarni aniqlash bo‘yicha turli genetik sinfdagi temir ma‘danli konlarda pog‘onalar  $\alpha_u$  va bortlarni  $\alpha_b$  tugalida oxirgi turg‘un qiyalik burchagi o‘rtacha quyidagini tashkil etadi [1-5]:

1. Birinchi sinfli konlar uchun tog‘ jinslarini holatiga bog‘liq ravishda pog‘onani qiyalik burchagi: o‘rtacha blokli jinslarda  $\alpha_u=45-50^0$ , yirik blokli jinslarda –  $\alpha_u=50-55^0$  va zich yoriqlarga ega bo‘lgan yirik bloklarda  $\alpha_u=60-65^0$  teng.
2. Ikkinchi sinfdagi birinchi gurux konlar uchun konning yotgan tomonidagi pog‘onalarni qiyalik burchaklari  $\alpha_u=45-55^0$  bo‘lganda  $\alpha_b=40-45^0$  ni tashkil qiladi. Konga osilgan tomondagi pog‘onalarning qiyaligini turg‘un burchagi bo‘yicha aniq

qiymati tog' jinslarini holatidan kelib chiqib aniqlanadi va quyidagini tashkil qiladi: kichik blokli jinslarda  $\alpha_u=50^0$ , o'rtacha blokli jinslarda  $\alpha_u=60-65^0$  va mustahkam zichlangan yoriqlarga ega bo'lgan o'rtacha blokli jinslarda hamda yirik blokli jinslarda  $\alpha_u=65-70^0$ . Bort tugalidagi turg'un burchaklar mos ravishda  $40-45^0$ ;  $50-55^0$  va  $55-60^0$  ga teng bo'ladi.

- Ikkinchi sinfdagi ikkinchi gurux konlar uchun cho'kindi tog' jinslari majmuidan kelib chiqib, ularning mustahkamligiga bog'liq xolda pog'onalarni turg'unligi qiyalashtirish burchagi  $45-60^0$  bo'lganda ta'minlanishi mumkin, u holda bortlar tugalidagi turg'un burchak singari cho'kindi jinslarda yoriqlarni tushish burchagi kabi aniqlanadi va  $20-30^0$  dan oshmasligi lozim.
- Uchinchi sinfdagi konlar uchun konni yotgan tomonidagi bortlar bo'yicha pog'onalarni qiyalashtirishni turg'un burchagi  $\alpha_b=40-45^0$  bo'lganda  $\alpha_u=45-60^0$  teng bo'ladi, osilgan tomon bo'yicha esa nuragan, sal nuragan va buzilmagan tog' jinslari uchun  $\alpha_u$   $50-60$ ;  $60-70^0$  va  $70-75^0$  tengdir, bort tugalida burchak  $\alpha_b=50-55^0$  va undan katta bo'ladi.

Shu tariqa, juda maqbul geologik tuzilishga ega xarakteristika bilan pog'onalarni yuqori burchakda qiyalashtirish imkoniyatiga erishish mumkin bo'lgan aralashgan jinsli konlar 3 sinf va 2 sinfni birinchi guruxiga mansubdir, anchayin yomon (yoriqlar tizimini tartibsiz yo'nalishi evaziga)– tog' jinslari birinchi sinf konlariga mansub bo'lib, eng yomoni esa 2 – sinfni ikkinchi guruxiga tegishli konlar hisoblanadi.

1, 3, 4 sinflar va 2 sinfni birinchi guruxidagi konlar uchun kon yotgan bortlar bo'ylab alohida uchastkalarini yo'qligi tufayli, pog'onalar qiyaligini qirqib o'tuvchi yoriqlarni bo'lmasligi bilan xarakterlidir. Ushbu sharoitlarda karyer bortlarini tugalida burchakni eng oxirgi natijaviy qiymati pog'onalarni qiyalik burchaklari va transport bermasini kengligi bilan aniqlanadi, bu portlatish ishlari ta'sirida massivni qiyalik qismini buzilish darajasiga jiddiy ravishda bog'liq bo'ladi.

Ushbu ish [6] bo'yicha konturli portlatishni qo'llanilishi odatiy portlatish yordamida qiyalashtirishga qaraganda qiyalik burchakni  $5-15^0$  kattalashish imkonini beradi va qiyalikni loyixaviy (oxirgi turg'unlik) burchagida ularni davomiy turg'unligini ta'minlab beradi.

Karyerni yon tomonidan nishab holatda tushuvchi yoriqlarni mavjud bo'lmasligi (2 - sinfni ikkinchi guruxidagi konlar uchun o'rindir), bortlar tugalidagi oxirgi natijaviy burchak to'liqligicha yoriqlar bo'ylab kontaktlarni saqlanishi bilan aniqlanadi. Karyer konturi oldi zonalarida portlatish parametrlarini chegaralash va konturli portlatishni qo'llanilishi ushbu sharoitlarda yoriqlarni ostdan qirqib o'tishida pog'onalarni turg'unligini ta'minlab berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Qoyali pog'onalarning qiyaligini deformatsiyalanish holatini kuzatish orqali, massivni juda xavfli buzilishi amalda har doim geologik kelib chiqishining zaif sirtiga mos kelishini ko'rish mumkin. Zaiflashish sirtini yo'nalishi va ushbu sirt bo'ylab hosil bo'ladigan ichki ishqalanishni ulashish koeffitsientini qiymati portlatishdan so'ng qiyalikni turg'unligi haqidagi masalalarni yechimida, xuddi shunday siqilishda yuzaga keladigan to'lqin frontida talab etilgan kuchlanish haqidagi masalalarni yechimida ham asosiy hal qiluvchi ahamiyatga ega

ekanligini qayd etish lozim.

Pogʻonalarni deformatsiyalanish holatini kuzatish [7-9] ishlarda keltirilganidek, pogʻona qiyaligining profilini davomiy holatida karyer konturi orti massivlarida bloklararo birikishini buzilish zonalarini chegara profiliga yaqinlashishini tasdiqlab beradi. Manbalarda keltirilgan taxlillarda [10-11] juda yaqqol ifoda etilgan yoriqlar tizimi yoʻnalishiga qoyali pogʻonalar qiyaligining turgʻun yuzasini shakllanishiga bogʻliqligini beshta oʻziga xos variantlarini ajratish imkonini bergan.

Karyer yon tomoniga nishab holatda tushadigan yoriqlar tizimini mavjud boʻlishi, pogʻonalar deformatsiyasiga portlatish ishlarini olib borilishida kuchlanish toʻlqinlari fronti boʻylab siquvchi kuchlanishni taʼsiri ostida ushbu yoriqlar tizimiga yoriqlarni rivojlanishi va birikishi natijasida hosil boʻladigan ogʻish sirti boʻylab buzilishi bogʻliq boʻladi. Yoriqlarni bunday yoʻnalishida pogʻona turgʻunligi butunlay zaif sirt aloqalarining saqlanishidan bogʻliq boʻladi. Yoriqlarni yoʻnalishini bu holati juda xavfli hisoblanadi. Aloqalarni saqlanishini taʼminlash dastlabki tirqish hosil qilish usulini qoʻllash orqali va karyer konturi oldi zonalarida burgʻilab portlatish ishlarining parametrlarini qatʼiy cheklash bilan amalga oshirish mumkin.

Karyer yon tomoniga tik holatda tushadigan yoriqlar tizimini mavjud boʻlishida, qiyalashtirish yoriqlar tizimining bittasida sodir boʻladi. Biroq portlatish ishlari taʼsirida juda katta masofalarga toʻlqinlar yoriqlardan qaytgan choʻziluvchi kuchlanishlar taʼsiri ostida ushbu tizimdagi yoriqlar rivojlanishi natijasida sirpanishni potensial sirtida shakllangan. Ammo kuchlanish toʻlqinlarini katta masofalarda tezda soʻnishi evaziga, yoriqlarni bunday yoʻnalishida buzilish zonasini oʻlchamlari unchalik katta emasligini koʻrish mumkin.

Yoriqdorlikni bunday yoʻnalishini karyer konturini tugalidagi pogʻonalarga portlatish ishlarini taʼsir etishi nuqtai nazaridan juda ham maqbul deb hisoblash mumkin. Bu holatda konturli portlatishni qoʻllashni maʼqulligi qiyalik sirtini turgʻun shakllantirish jarayonining tezlashishi va konturlashni aniqlikda oshishi bilan taʼminlanadi.

Tushish burchagiga koʻra juda aniq aks etgan yoriq vertikalga yaqin boʻladi, qiyalikni turgʻun burchagi bloklararo birikishni buzilish zonalarining parametrlari bilan aniqlanadi. Dastlabki tirqish hosil qilish usulini qoʻllanilishi pogʻonalarni loyixaviy burchak ostida davomiy turgʻunligiga erishishi hisoblanadi. Biroq ayrim hollarda, ayniqsa massivlarni kichik bloklar sifatida tuzilishi karyer konturi oldi zonalarida yirik masshtabli portlatish ishlarini olib borilishi pogʻonasimon yuzaga ega boʻlgan qiyaliklarni shakllanishiga olib kelishi mumkin, bunda BPI parametrlarini tanlashda hisobga olish lozim boʻladi.

Massivni orqa tomonida nishab holatda tushgan yoriqlar tizimini mavjud boʻlishida dastlabki tirqish hosil qilish usulini qoʻllanilishi juda samarali hisoblanadi. Buzilish zonasini chegaralash bilan pogʻonalarni qiyalashtirishda haddan ziyod turgʻun burchaklarga erishish mumkin, oʻsha vaqtda xuddi odatiy portlatish ishlari singari karyer konturi ortidagi massivni buzilishi natijasida qiyalik burchagi shakllanadi, bu esa parchalangan aloxida boʻlakdorlikni tabiiy qiyalik burchagiga yaqin qiymat boʻladi. Bunga sabab shundaki, xavfli yoʻnaltirilgan yoriqlarni boʻlmasligidan qatʼiy nazar massiv sezilarli katta chuqurlikda shiddatli deformatsiyaga uchraydi, yuqorida koʻrib chiqilgan variantlardan koʻra, xuddi shunday hozirgi holatda har bir qatlam oʻziga hos boshqalaridan ajralib turadigan toʻlqin uzatgich hisoblanadi,

bu bloklararo birikishni zaryaddan uncha katta bo‘lmagan masofalarga buzilishiga imkon beradi.

Bundan shuni qayd etish lozimki, barcha holatlarda buzilish zonasini bo‘lmasligi, loyixada ko‘rsatilganiga qarshi, pog‘onalar qiyaligini o‘pirilib tushishiga olib keladi. Massivni tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan holda qiyalik profili o‘pirilib tushganidan so‘ng bloklararo birikish zonasini buzilish profiliga yaqin ko‘rinishga keladi ya’ni botiq shaklga ega bo‘ladi.

Konturlash zaryadini to‘g‘ri tanlanishi va karyer konturi oldi zonasida BPI parametrlarini cheklash massivni tuzilishida juda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Xavfsizlikni Yagona qoidalariga muvofiq [12], karyer bortlarini shakllantirishda kontur oxirida o‘lchami  $1/3 N_u$  dan kam bo‘lmagan berma kenligiga ruxsat beriladi.

**Natijalar.** Natijada, turg‘unligi bo‘yicha talab etilgan pog‘onani qiyalashtirishni qiyaligi ( $\alpha_u$ ) va uni balandligi ( $N_u$ ), bunda balandligi ( $N_\delta$ ) bo‘lgan bortlar uchun uskunalariga mo‘ljallangan umumiy kengligi  $V$  bo‘lgan maydoncha va berma qoldirilishi nazarda tutilgan bort tugalidagi oxirgi texnologik erishilgan qiyalik quyidagi formula bo‘yicha aniqlanishi mumkin:

$$\text{tg } \alpha_\delta^t = H_\delta \left[ H_\delta \text{ctg} \alpha_y + \frac{H_\delta}{3} (n - 1) + H_\delta B \right]^{-1}, \text{ grad.} \quad (1.1)$$

bu yerda  $V$  – karyer bortining bilandligini birligiga to‘g‘ri keluvchi transport bermasining kengligi, m/m;

$n$  – pog‘onalar soni,

$$n = \frac{H_\delta}{H_y}.$$

Chuqurligi 600 metr bo‘lgan karyerlar uchun bortlar tugalidagi oxirgi texnologik erishilgan qiyalikni hisoblangan qiymatlari  $\alpha_u$  turli qiymatlarda bo‘lganda pastki jadvalda keltirilgan. Balandligi  $N_u=30$  metr bo‘lgan pog‘onalar uchun transport bermasi mavjud bo‘lmaganda ( $V=0$ ) hisoblashlar amalga oshirilgan.

$\alpha_u$ , grad.	40	45	50	55	60	65	70	75	80
$\alpha_\delta^t$ , grad.	33,5	37,0	40,5	45,5	47,5	51,3	55,0	59,0	63,0

Hisobiy qiymatlarni  $\alpha_\delta^t$  turli genetik turdagi temir ma’danli konlarda karyer bortlari va pog‘onalarining turg‘un qiyalik burchagini taqqoslash orqali amalda barcha holatlarda, II sinfni ikkinchi guruxidagi konlarni bo‘lmasligi (Korshunovsk karyeri) bort tugalidagi oxirgi texnologik erishilgan qiyalik turg‘unlikdan kam yoki teng bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Agarda shuni nazarda tutish lozim bo‘lsa, karyerni oxirgi konturidagi transport bermasini kengligi temir yo‘l va avtomobil transportida mos ravishda 50 va 30 metrdan kam bo‘lmagan hamda uni balandligini 100 metriga teng bo‘ladi, unda turg‘unligi bo‘yicha oxirgi talab etilgan bort tugalidagi oxirgi texnologik erishilgan qiyalik, transport bermasini hisobga olgan holda  $7-15^0$  qurib bo‘lingan. Shu tariqa, temir ma’danli karyerlarni borti tugalidagi loyixaviy burchagi potensial turg‘un hisoblanadi. Pog‘onalar qiyaligini loyixaviy burchagi turg‘unlik bo‘yicha natijaviyga teng deb qabul qilinadi.

Lekin, qoyali tog' jinslarini portlatish ishlari yordamida qazib olishga tayyorlashda massivdan ajraladigan sirtida sezilarli deformatsiyani kuzatish mumkin, bu transport va xavfsizlik bermalarini buzilishiga va qiyalikni o'pirilib tushishiga olib keladi. Bu holatda transport kommunikatsiyalarini qayta tiklash uchun karyer bortlarini qo'shimcha kengaytirish talab etiladi, bu bortlarni qayta ishlashiga va qoplovchi jinslarni qo'shimcha xajmini olib tashlanishiga sarflanadigan sezilarli moddiy harajatlarga bog'liq bo'ladi. Shunga bog'liq ravishda chuqur karyerlar uchun karyer oldi zonalarda burg'ilab portlatish ishlarini olib borilishni maxsus texnologiyasini qo'llanilishi va loyixaviy qiyalik burchak ostida pog'onalar turg'unligini ta'minlashga yo'naltirilgan chora tadbirlar amalga oshirilishi iqtisodiy jixatdan oqlangan.

Shakllantrilayotgan pog'onalar holatini boshqarishni yetarlicha samarali, juda ham texnologik va yuqori ish unumdorligini ta'minlab beruvchi usullari bu konturli portlatish hisoblanadi. Konturli portlatishni qiyaliklarni sun'iy mustahkamlash usullariga solishtirganda nisbatan arzonligi pog'onalar qiyaligini rasmiylashtirishda uni o'rmini bosolmaydi.

Pog'ona qiyaligini qulab tushishini bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlarni samaradorligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$E = S_1V - C_2S, \quad \text{so'm/yil.} \quad (1.2)$$

bu yerda  $E$  – bortlarni qo'shimcha kengaytirish zarurligi va pog'ona qiyaliklarini o'pirilib tushishini bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlarni joriy etishdagi iqtisodiy samaradorlik, so'm/yil;

$S_1$  – qoplovchi jinslarni olib tashlashga sarflanadigan to'g'ridan- to'g'ri harajatlar, so'm/m<sup>3</sup>;

$V$  – qiyaliklarni o'pirilishini hisobga olib bortlarni rejaviy kengaytirishda hisobiy yil bo'yicha olib tashlanishi rejalashtirilgan qoplovchi jinslarni qo'shimcha xajmi, m<sup>3</sup>;

$C_2$  – konturli portlatishga sarflanadigan harajatlar, so'm/m<sup>2</sup>;

$S$  – hisobiy yil bo'yicha loyixalashtirilgan konturda barpo qilinadigan pog'onalar qiyaliklarini yig'indi sirtlari, m<sup>2</sup>/yil.

Karyerda 1000 metrga uzaygan bortlarning cho'zilgan shakldagi pog'onalar qiyaligini turg'unligini ta'minlash bo'yicha olib boriladigan chora tadbirlarni rad etishda qoplovchi tog' jinslarini qo'shimcha xajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\Delta V = 500H_{\delta}^2(ctg\alpha_{\delta_1} - ctg\alpha_{\delta_2}), \text{ m}^3/\text{KM}. \quad (1.3)$$

Planda aylana shaklga ega bo'lgan chuqur karyerlar uchun, qoplovchi tog' jinslarini qo'shimcha xajmi karyerda quyidagini tashkil qiladi

$$\Delta V = H_{\delta}^3(ctg^2\alpha_{\delta_1} - ctg^2\alpha_{\delta_2}), \text{ m}^3. \quad (1.4)$$

bu yerda  $\alpha_{\delta_1}$  va  $\alpha_{\delta_2}$  – pog'onalarni loyixaviy burchaklarini saqlashda va pog'onalarni o'pirilib tushishi natijasida qo'shimcha kengaytirish holatlarida bortlar tugalida o'rtachalashtirilgan burchaklar, grad

(1.3) va (1.4) formulalardan kelib chiqib, bortlar tugalidagi burchaklarni kattalashishidan olinadigan samaradorlik ayniqsa chuqur karyerlarda keskin ellipsoid ko'rinishda namoyon bo'ladi, bu ko'p xollarda temir ma'danli karyerlarga tegishli bo'ladi.

**Xulosa.** Karyerlar chuqurlashgan sayin karyer borti va pog‘ona qismlaridagi nurashlar va ko‘chkilar ortib boradi. Taqdiqot ishlaridan kelib chiqib bortlar tugalidagi burchaklarni kattalashishidan olinadigan samaradorlik ayniqsa chuqur karyerlarda keskin ellipsoid ko‘rinishda namoyon bo‘ladi, bu ko‘p xollarda temir ma‘danli karyerlarga tegishli bo‘ladi.

Konchilik korxonalarini obyektlarida qo‘llanilishini istiqbolligini tasavvur qilish mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Васильев М.В., Зотеев В.Г., Морозов В.Н. Прогноз блочности пород рудных месторождений. – Москва, 2007. –С. 13-42.
2. Выстропов И.Л. Прогнозирование механических свойств скальных пород железорудных месторождений // Горный журнал. – Москва, 2006. – №5. – С. 45-48.
3. Ершов Н.П. Прогноз естественной трещиноватости породных массивов железорудных месторождений // Мат. сов. по пробл. и теор. прог. инж.-геол. усл. мест. пол. иск. – Москва, 2005. – С. 87-89.
4. Зотеев В.Г., Ершов Н.П. Прогноз трещиноватости скальных пород при разработке железорудных месторождений // Горный журнал. – Москва, 2002. №8. С.5-7.
5. Морозов В.Н. Инженерно-геологические исследования и прогнозная оценка трещиноватости пород железорудных месторождений // Дисс. ... канд. техн. наук. Л.: ЛГИ, 1976. – С. 73-101.
6. Методические указания по обеспечению устойчивости откосов и сейсмической безопасности зданий и сооружений при ведении взрывных работ на карьерах. – С.-Пб., 2007. – С. 3-15.
7. Исследование устойчивости бортов Соколовского карьере ССГОК // Отчет / ИГД МЧМ, 1975. – С. 12-15.
8. Комарова В.В., Зотеев В.Г. Развитие деформации скальных уступов во времени // В сб.: Вопросы инженерной геологии при проектировании, строительстве и эксплуатации подъемных сооружений, шахт и карьеров. С.-Пб., 2000.- С. 32-35.
9. Кузнецов Г.В., Улыбин В.П. Деформирование массива скальных пород при действии интенсивных взрывных нагрузок. – Москва, 1999. – С. 241-256.
10. Инструкция по наблюдению за деформациями бортов, откосов уступов и отвалов на карьерах и разработке мероприятий по обеспечению их устойчивости. – С.-Пб., 1995.- С. 5-10.
11. Фисенко Г.Л. Устойчивость бортов карьеров и отвалов. – М.: Недра, 1995. – С. 126-131.

12.Единые правила безопасности при разработке месторождений полезных ископаемых открытым способом. – М.: 2002. – С. 5-10.

## DEHQONOBOD KALIY TUZ KONIDA MARKSHEYDERLIK ISHLARIDA

### “HERON LITE” SKANERLASH ASBOBINI QO‘LLASH TAMOILLARI

*A.A.Abdiazizov<sup>1</sup>, M.Z.G‘ayratova<sup>1</sup>*

*1 – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, Tapaqo‘ton tuz konida foydali qazilma qazib olingan bo‘shliq hajmlarini hisoblash, hosil bo‘lgan ag‘darma hajmini hisoblash va marksheyderlik xizmati ishlarida yuqori aniqlikka ega bo‘lgan HERON LITE skanerlash asbobidan foydalanishni tashkil etish maqsad qilingan.

**Kalit so‘zlar:** kaliy tuzi, foydali qazilma, qazib olish, bo‘shliq xajmi, asbob-uskunalar, o‘lchash ishlari, o‘lchash masofasi, qayta ishlash, texnologiyalar, lahim, yer osti syomkasi.

## PRINSIPLES OF USING “HERON LITE” SCANNING TOOL IN MARKING

### WORKS IN DEHQANOBAD POTASSIUM SALT MINE

*A.A.Abdiazizov<sup>1</sup>, M.Z.G‘ayratova<sup>1</sup>*

*1 – Karshi engineering economics institute*

**Abstract.** In this article, it is aimed to calculate the volume of the mineral mined space in the tepaqoton salt mine, calculate the amount of overturning and organize the use of the HERON LITE scanning tool with high accuracy in the works of the surveying service.

**Keywords:** potassium salt, mineral, mining, space size, equipment, measurement work, measuring distance, recycling, technology, lahm, underground shooting.

**Kirish.** Respublikamizning barcha sohalarini texnik qayta qurollantirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta‘minlash hamda xalqaro zamonaviy talablarga javob beruvchi telekommunikatsiyali va kompyuterli aloqa tizimini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qoldi.

Respublikamiz hududida yuqori ko‘lamda ish olib borayotgan konchilik sohasida ham (AGMK va NGMK) yuqorida ta‘kidlab o‘tilgan masalalar yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida ish olib borayotgan O‘zkimyo sanoat AJ ga qarashli, Kaliy tuz koni ham shular jumlasidandir. O‘zbekiston va xorijiy davlatlarda kaliy tuziga bo‘lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Shu sababli biz e‘tiborimizni Tapaqo‘ton kaliy tuz koniga qaratdik.

***Suvni yutish*** - gazlardan karbonat angidridni olishning keng tarqalgan usuli. Usulning asosiy afzalliklari changni yutish vositasining mavjudligi va arzonligi, kamchiliklari - karbonat angidridni suv bilan singdirish qobiliyati (100 kg changni yutish uchun 8 kg CO<sub>2</sub>) va past selektivlik. Suvda karbonat angidrid bilan birga vodorod, uglerod oksidi, azot va boshqalar eriydi. Shuning uchun ajralib chiqqan karbonat angidrid yetarli darajada toza emas [1].

Ushbu usul bilan karbonat angidriddan gazni tozalash uchun o'rnatish sxemasi juda

oddiy. Gaz 1,5-2,5 MPa bosimda qadoqlangan minoralarda (skrubberlarda) sovuq suv bilan yuviladi, chunki suvda karbonat angidridning eruvchanligi bosim oshishi bilan ortadi. Bunday holda, vodorod sulfidi ham qisman gazdan chiqariladi, uning eruvchanligi ham ortadi. Keyin bosim pasayadi va suvdan 85% gacha karbonat angidrid (qolganlari vodorod, azot, vodorod sulfidi) bo'lgan gaz ajralib chiqadi (desorbsiyalanadi) quruq muz, karbamid, soda va boshqalarni ishlab chiqarish uchun ishlatiladi.

#### ***Kimyosorbtsiya usullari.***

Etanolaminlarning suvli eritmaları bilan gazlarni tozalash. Turli texnologik gazlarni qayta ishlashga tayyorlashda (xususan, ajratish uchun piroglar) etanolaminlar bilan karbonat angidridni kimyosorbtsiya qilish qo'llaniladi. Etanolamin gazini tozalash moslamasining sxemasi 1-rasmda ko'rsatilgan [2].

Monoetanolamin karbonat angidridga nisbatan maksimal singdirish qobiliyatiga ega:

Karbonat angidridning muvozanatli eruvchanligi gaz bosimiga, yutilish haroratiga va eritma konsentratsiyasiga bog'liq. Odatda monoetanolaminning 15-20% eritmalaridan foydalaning. Absorbtsiya 40-45 °C haroratda va 1,5-3,0 MPa bosimda (ishlab chiqarish sxemasiga qarab) davom etadi. Kimyosorbtsiya natijasida hosil bo'lgan karbonatlar va bikarbonatlar oqim 120 °C ga qizdirilganda karbonat angidrid ajralib chiqishi bilan desorberda parchalanadi [3].

Olingan yuqori konsentrlangan karbonat angidrid (99%) soda, karbamid, quruq muz ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Uning tozalangan gazdagi qoldiq miqdori 0,01-0,1% (massa) [4].

**Natijalar.** Xom gaz pastki qismga, kislotali gaz absorber esa absorber 2 ning yuqori qismiga beriladi. Kolonnadan chiqqandan so'ng, tozalangan gaz MEA eritmasining singdirilgan tomchilarini ajratish uchun 1-seperatorga kiradi. To'yingan changni yutish eritmasi erigan uglevodorod gazlaridan ajratish uchun idish 3 ga kiradi, issiqlik almashtirgich 6 dan o'tadi va tozalash ustuni 7 ga kiradi. Yuqoridagi tozalash ustuni 7 dan kislota gazlari, suv bug'lari va MEA sovutilgandan so'ng 10-seperatorga kiradi, u erdan kondensat pompalanadi. Sug'orish ustunlari uchun. Ustunning pastki qismidan regeneratsiya qilingan eritma issiqlik almashtirgich 6, muzlatgich 5 orqali o'tadi va 4-sisternaga kiradi, u erdan sug'orish uchun 2-absorberga yuboriladi.

**Asosiy kamchilik** - bu sorbentni qayta tiklash uchun sezilarli issiqlik iste'moli, bu tozalangan gazda karbonat angidrid konsentratsiyasining oshishi bilan ortadi, shuningdek monoetanolamin kam va arzon bo'lsa-da, nisbatan uchuvchan changni yutish vositasini yo'qotadi.

Karbonat eritmaları bilan tozalash. U karbonat angidridning natriy va kaliy karbonatlarining (odatda kaliy) suvli eritmaları bilan ko'p valentli metall oksidlarining faollashtiruvchi qo'shimchalari bilan o'zaro ta'siriga asoslangan. Karbonatlarning suvda eruvchanligini va kimyosorbtsiya jarayonining tezligini oshirish uchun karbonatlarning issiq eritmaları (110-120 °C) ishlatiladi. Odatda mishyak bilan faollashtirilgan kaliyning 25% suvli eritmasi ishlatiladi. Yutish tezligi suyuqlik fazasidagi reaksiya tezligi bilan deyarli to'liq cheklangan:  $CO_2 + OH = HCO_3$



## ADSORBSION QURITISH JARAYONI TADQIQ QILISH

*Sh.A.Rizayev, X.I.Ne'matov*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada adsorbsiya jarayonini afzalilari va adsorbent sifatida ishlatiladigan moddalar va texnologik seximlar keltirilib o'tilgan va adsorbentga qo'yiladigan talablar ular quyidagilar gazdan namlikni tez shimib olishi va osongina qayta tiklanishi faolligi va kuchini sezilarli darajada yo'qotmasdan bir necha marta regeneratsiyaga bardosh berishi, yuqori mexanik kuchga va singdirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligi maqolda ko'rsatib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** suv maydalagich, voronka, quvurli isitgich, adsorberlar, ajratuvchi, issiqlik almashtirgich, adsorbent, seolitlar, regeneratsiya, desorbsiya.

## STUDY OF THE PROCESS OF DRYING ADSORBION

*Sh.A.Rizayev, X.I.Nematov*

*Karshi engineering-economics institute*

**Abstract.** In this article, the advantages of the adsorption process and the substances used as adsorbents and technological sections are presented, and the requirements for the adsorbent are as follows: it can quickly absorb moisture from the gas and is easily regenerated, it can withstand regeneration several times without significant loss of activity and strength, high it is indicated in the proverb that it should have mechanical strength and absorption capacity.

**Keywords:** water grinder, funnel, tubular heater, adsorbers, separator, heat exchanger, adsorbent, zeolites, regeneration, desorption.

**Kirish.** Adsorbsion quritishning mohiyati suv molekularining qattiq adsorbentining g'ovak yuzasi tomonidan tanlab yutilishi, so'ngra ularni tashqi ta'sirlar (adsorbent haroratining oshishi yoki suv bosimining pasayishi) bilan g'ovaklardan ajratib olishdir.)

Gazni qattiq quritgichlar bilan quritish qattiq quritish moslamasi bo'lgan partiyali apparatlarda amalga oshiriladi. Quritish jarayonining to'liq sikli adsorbentning adsorbsiya, regeneratsiya va sovutish bosqichlaridan iborat [1]. Qurituvchi sifatida silikagellar, aluminosilikagellar, faollashtirilgan alumina, boksitlar va molekulyar elaklar (seolitlar) ishlatiladi. Ularning adsorbsion qobiliyati mohiyatan g'ovaklarning o'lchamiga va shunga mos ravishda ikkinchisining o'ziga xos yuzasiga bog'liq. Molekulyar elaklarning o'ziga xos xususiyati nafaqat namlikni, balki vodorod sulfidi va karbonat anhidridni ham o'zlashtirish qobiliyatidir, ya'ni kislotali komponentlardan toza gaz. Gaz harakatiga qarshilikni kamaytirish uchun adsorbentlar sharlar yoki granulalar shaklida tayyorlanadi [2]. Quritgichga qo'yiladigan talablar juda qattiq: u gazdan namlikni tez shimib olishi va osongina qayta tiklanishi faolligi va kuchini sezilarli darajada yo'qotmasdan bir necha marta regeneratsiyaga bardosh berishi,

yuqori mexanik kuchga va singdirish qobiliyatiga ega bo'lishi, gaz oqimiga ozgina qarshilik ko'rsatishi va past narxda bo'lishi kerak. Ba'zan bitta apparatdagi ikkita quritgichning kombinatsiyasi, masalan, silikagel va faollashtirilgan alumina ishlatiladi, bu silikagelning yuqori assimilyatsiya qilish qobiliyatini alyuminiy oksidi bilan yuqori darajadagi gaz quritish bilan birlashtirishga imkon beradi. Quritgichni qayta tiklash uchun isitiladigan gaz ishlatiladi. Desorbsiya harorati odatda 160-180 °C (molekulyar elaklar uchun - 280-290 °C).

Adsorbsion quritish uskunasi kamida ikkita adsorbsion birlikdan iborat. O'rnatishning sxematik diagrammasi 1-rasmda ko'rsatilgan [3].

Nam gaz tomchilar ajratgichdan o'tib, yuqoridan adsorberlardan biriga kiradi va u orqali o'tadi. Hozirgi vaqtda boshqa adsorber regeneratsiya yoki sovutish bosqichida. Quritilgan gaz keyingi qayta ishlashga yoki gaz quvuriga beriladi. Dastlabki gazning bir qismi quvurli isitgichdan o'tib, quritgichni qayta tiklash uchun boshqa adsorberning pastki qismiga yuboriladi. Regeneratsiyadan gaz sovutish uchun issiqlik almashtirgichdan, suvni ajratish uchun ajratgichdan o'tadi va nam gazning asosiy oqimi bilan aralashadi.

***Bitta qurilmaning to'liq ishlashi quyidagi to'rt davrni o'z ichiga oladi:***

- 35 - 50°C haroratda adsorbsiya, bosim 8-12 MPa, gazning adsorbent bilan ta'siri qilish muddati kamida 10s (apparatdagi gaz tezligi 0,15 - 0,30 m/s). Adsorbsiyaning davomiyligi adsorberning adsorbsion quvvatiga, gazning dastlabki va oxirgi namligiga, adsorbentning apparatdagi yukiga qarab tanlanadi;

- adsorbentni qizdirish bu apparatni adsorbsiyadan desorbsion rejimga o'tgandan keyin amalga oshiriladi. Isitish quvurli isitgichdan soatiga 60 °C dan oshmaydigan issiq gaz bilan amalga oshiriladi. Isitish uchun sarflangan vaqt adsorbsiya davrining 0,6 -0,65 ni tashkil qiladi;

- desorbsiya – so'rilgan suvning adsorbent teshiklaridan siljishi va uning adsorbsion faolligini tiklash. U adsorbent harorati 200-250°C (silikagellar uchun) yoki 300-350°C (seolitlar uchun) ga yetganda paydo bo'la boshlaydi. Isitish va desorbsiya davrlarida issiq gaz adsorbsion qatlam orqali adsorbsiya davrida quritilgan gaz yo'nalishiga teskari yo'nalishda (ya'ni pastdan yuqoriga) o'tadi;

- adsorbentni sovutish, u desorbsiya tugagandan so'ng va qurilmani adsorbsion (quritish) rejimiga o'tkazgandan so'ng boshlanadi. Sovutish dastlabki sovuq gaz bilan amalga oshiriladi. Sovutish davri adsorbsiyaga sarflangan vaqtning 0,35 - 0,40 qismini oladi.

Adsorbsion quritish jarayonida gazda butan va undan yuqori uglevodorodlarning bo'lishi jarayonni murakkablashtiradi, chunki bu uglevodorodlar adsorbsion qatlamning chiqish qismida adsorbsiya bosqichida so'riladi va suv yuqori haroratda desorbsiyalanganda koks hosil qilishga moyil bo'ladi. adsorbentning teshiklarida cho'kmalar paydo bo'ladi. Adsorbentning asta-sekin kokslanishi uning adsorbsion qobiliyatining pasayishiga olib keladi, shuning uchun vaqti-vaqti bilan adsorbentni qayta tiklash, ya'ni uning teshiklaridan koksni yoqish kerak [4].


Kislotali komponentlarni o'z ichiga olgan gazlarni quritganda, seolitlar eng ishonchli hisoblanadi.

Absorbsion quritish usulining yutilish usuliga nisbatan o'ziga xos xususiyati uning parametrlaridan qat'iy nazar gazni quritishning yuqori darajasi, o'rnatishning ixchamligi va kam quvvatli qurilmalar uchun kapital xarajatlarning pastligi usulning kamchiliklari adsorbent

uchun yuqori xarajatlar, gaz oqimiga yuqori qarshilik va yuqori quvvatli zavodlarni qurishda yuqori xarajatlardir.

**Natijalar.** Adsorbsion usulning rivojlanishi gazlarni quritish uchun qisqa davrli jarayonlarni rivojlantirish yo‘nalishida boradi. Adsorbsiya va desorbsiya davrlarining davomiyligi 1,5-10 soatni tashkil qiladi va adsorbsiya yuqori bosim va atrof-muhit haroratida, desorbsiya esa atmosfera bosimi va bir xil haroratda amalga oshiriladi. Qisqa davrli adsorbsiyaning afzalligi unumdorlikni oshirish va jarayonni to‘liq avtomatlashtirish imkoniyatidir.

Adsorbsion quritish shudring nuqtasini 100°C gacha tushirishga imkon beradi (shudring nuqtasi minus 90°C gacha). Shuning uchun bu usul yuqori quritish chuqurligi kerak bo‘lganda qo‘llaniladi.



**1-rasm. Gazni qattiq absorberlar bilan suvsizlantirishning texnologik sxemasi:**

*1 - suv maydalagich; 2, 7 - voronka; 3 - quvurli isitgich; 4, 5 - adsorberlar; 6 - ajratuvchi; 8 issiqlik almashtirgich oqimlari: I - nam gaz; II - quruq gaz; III - aylanib o‘tish liniyasi.*

Past haroratli ishlov berish namlik miqdori uchun qat’iy talablarga bo‘ysunadi (shudring nuqtasi minus 70 ° C dan yuqori bo‘lmasligi kerak)

**Xulosa.** O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida adsorbentlarning ishlash vaqti, isitish va sovutish vaqtlari, Adsorbsiya va desorbsiya davrlarining davomiyligi va gazni qattiq absorberlar bilan suvsizlantirishning texnologik sxemasi yaratildi, jarayonda qo‘llaniluvchi turli adsorbentlarni ishchi ko‘rsatgichlarini to‘g‘ri va aniq boshqarishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Брагинский Р.Б., Шлихтер З.Б. Перспективы химической переработки природных газов. Обзорная информация. ЦНИИТЭнефтехим: 1991. вып.61 – 62 с.
2. Технология переработки сернистого природного газа. Справочник. Афанасьев А.И., Стрючков В.М., Подлегаев И.И., Кисленко Н.Н и др. Под ред. А.И. Афанасьева – М.: Недрa, 1993. – 152 с.

3. Босняцкий Г.П. Природный газ и сероводород. Справочное пособие. М.: «Газоил пресс», 1998. – 222 с.
4. Белов П.С., Голубева И.А., Низова С.А. Экология производства химических продуктов из углеводородов нефти и газа – М.: Химия, 1991. – 256 с

## YER OSTI KON LAHIMLARINI KONTURLI PORTLATISHDA ZARYADLARNING ZAMONAVIY KONSTRUKSIYASINI ISHLAB CHIQUISH

*I.T.Mislibayev<sup>1</sup>, X.A.Nurxonov, Z.Y.Latipov<sup>2</sup>*

*1 – Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti,*

*2 – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

*E-mail: [knurkhonov@mail.ru](mailto:knurkhonov@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Maqolada zarb to‘lqinli jarayonlarni tarqalish tezligini hisobga olib shpurlarda bosim kuchlanish jarayonlarini va uning devoriga yo‘nalgan yuklamani sonli modellashtirish ishlab chiqilib, chegaralovchi shpurlardagi portlovchi modda zaryadi va tiqin orasida bo‘shliq qoldirish orqali portlash kamerasi devorlarida yuzaga keladigan bosimning o‘zgarish qonuniyatlari o‘rnatilishi bilan izohlanadi.

**Kalit so‘zlar:** Portlovchi modda, shpur, kavjoy, zaryad, portlash to‘lqini, konstruksiya, massiv, enert materiallar, tirqish, patron, skvajina, ruda, portlatish, kuchlanish to‘lqini, xavo bo‘shlig‘i.

## DEVELOPMENT OF A MODERN CONSTRUCTION OF CHARGES IN CONTOUR BLASTING OF UNDERGROUND MINE SOLDERS

*I.T.Mislibayev<sup>1</sup>, X.A.Nurkhanov, Z.Y.Latipov<sup>2</sup>*

*1 – Navoi State University of mining and technology,*

*2 – Karshi Engineering-Economics Institute*

*E-mail: [knurkhonov@mail.ru](mailto:knurkhonov@mail.ru)*

**Abstract.** The article deals with the development of a methodology for numerical modeling of the processes of increasing pressure and load on the walls of the hole, taking into account the velocity of propagation of shock-wave processes, as well as in establishing patterns of pressure changes on the wall of the blast chambers by leaving a gap between the explosive charge in the contour holes and the hole.

**Keywords:** Explosive, hole, each, charge, blast wave, structure, array, energy materials, slot, cartridge, well, ore, explosion, voltage wave, airspace.

**Kirish.** Bugungi kunda dunyoda tog‘ jinslarini parchalashning portlatish usuli hech qanday alternativga ega emasligi, ayniqsa yer osti konlarining chuqur gorizontlarida kon lahimlarini qazib o‘tishda konturli portlatish parametrlarini optimallashtirish orqali kontur orti

massivining xavfsizligini oshirish, bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada qazib olish chuqurligining ortishi, boshqa teng bo'lgan sharoitlarda, portlovchi moddalarning solishtirma sarfini oshishiga, portlash ko'rsatkichlarining: shpurdan foydalanish koeffitsiyenti, kontur orti massivining saqlanish hajmi va sifatini loyihaviy ko'rsatkichlarini pasayishiga olib keladi hamda kavjoy bilan kesishgan tog' jinslarining fizik xususiyatlariga bog'liq holda, qattiq va yumshoq jinslarda kon lahimlarini qazib o'tishning turli usullari mavjud bo'lib qattiq jinslar uchun burg'ilash va portlatish ishlari majmuasi qo'llaniladi, bunda portlovchi moddaning turini, zaryadning massasi va konstruksiyasi, shpurlarning chuqurligi, soni va joylashish sxemasini tanlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar** Portlovchi modda zaryadining mavjud bo'lgan konstruksiyasi - tog' jinslari massivini yorib ajratish uchun mo'ljallangan bo'lib, portlash ta'siri ostida yoriqlarni hosil bo'lishi xususiyatiga asoslangan bo'ladi. Ma'lumki, yoriqlar hosil bo'lishi jarayonida ikki bosqichni ajratish joizdir: yoriqlarni tarqalishi va ularni kengayishi. Portlashni to'liq ta'sir etish fazasida portlovchi bo'shliqdagi o'rtacha bosimni o'rnatilishigacha shpur devorida lokal buzilishlar yuzaga keladi, portlashni porshenli ta'siri fazasida esa, bitta magistral yoriqni yoki radial yoriqlarni o'sishi sodir bo'ladi.

Konturli portlatish uchun barcha asosiy zaryad konstruksiyalarini ikkita turga ajratish mumkin: massivni silliq devorli yorib ajratish (щадящий) uchun va yo'naltirilgan yoriqlar hosil qilish yo'li bilan massivni yorib ajratish uchun[1; 49-58-b].

O'z navbatida konturli portlatishning har qaysi turini ikki guruxga ajratish talab etiladi. Asosiy belgilari, konturli zaryadlashni konstruksiyasini birinchi yoki ikkinchi guruxga kiritish mumkinligi joizdir, bunda shpur devori bo'ylab massivni yorib ajratish uchun mo'ljallangan portlovchi modda kontaktining yo'qligi yoki mavjudligi hisoblanadi. Portlovchi bo'shliq devorida nuqsonni hosil qilish uchun zaryadga qo'zg'atuvchi yoki kontaktli detonatsiya shnuri joylashtirish umumiy zaryadni u yoki bu guruxlarga tegishli bo'lishi uchun belgilari hisoblanmaydi.


Adabiyotlar manbalaridan tog' jinslari massivini yo'naltirib yorib ajratish uchun ma'lum bo'lgan xarakterli zaryad konstruksiyalarini ko'rib chiqamiz. Ulardan foydalanish doirasiga asosan bog'liq bo'lmaydi (tabiiy toshlarni qazib olishda, pog'onalarni qiyalashtirishda, kon lahimlarini qazib o'tishda silliq devorli portlatishda va b.q.).

Avvalambor, birinchi guruxga portlovchi modda atrofida inert materiallar bilan to'ldirilgan yoki havo bo'shliqli halqali tirqishi mavjud bo'lgan konstruksiyalarni kiritishimiz mumkin.

Yer osti kameralarini va tonnellarni qazib o'tishda hamda gidroqurilishlarda bunday zaryadlar silliq devorli konturli portlatish ishlarida juda keng tarqalganligi ma'lumdir. Odatda, radial tirqishlardan tashqari zaryad uzunligi bo'ylab portlovchi modda patronlarini bir joyga to'planishi ko'rib chiqiladi (1a-rasm).

Ushbu zaryadlarni barcha konstruksiyalarida shpur (skvajina) devori bilan zaryad orasidagi aloqani mustahkam emaslik prinsipidan foydalaniladi, bu aloqalarning mustahkam emaslik koeffitsiyenti bilan xarakterlanadi hamda portlovchi modda zaryadi radiusiga zaryadlangan bo'shliq radiusining nisbatini aniqlab beradi. Ko'p hollarda ushbu

koeffitsiyentning qiymatlari uchtdan ko'p bo'ladi.



**1-rasm. Konturli portlatish uchun zaryad konstruksiyasining sxemasi**  
*a- marjon tizmali (girlyandovaya) zaryad; b-shlangli zaryad*

Konturlangan sirtning sifati odatda shpurlarning (skvajinalar) qoldig'ini buzilmasligi bo'yicha yoki konturlangan sirtning g'adir budirligi bilan baholanadi. Asosan muhim inshootlarda, masalan gidroqurilishlarda, kontur orti massividagi qaytarilmas deformatsiyaning chuqurligi albatta tekshiriladi.

Oxirgi yillarda konturli portlatishda marjon tizmali (гирляндовый) zaryadlardan tashqari portlovchi moddalarning yalpi shlangli zaryadlarni qo'llanilishi boshlandi (1b-rasm), bundan tashqari maxsus detonatsiya shnurli zaryadlardan foydalanilmoqda. Bir qator kon korxonalarida, konturli portlatish uchun maxsus detonatsiya shnurlari bo'lmagan holatlarda bir qancha oddiy detonatsiya shnurlari ishlatiladi. Birinchi guruhdagi konturli zaryadlar orqali massivni yo'naltirilgan yoriqlar yordamida ajratishni samaradorligini oshirish uchun bir qator texnologik usullar va ko'nikmalar qo'llaniladi. Ulardan eng o'ziga xos bo'lganlarini, ya'ni tog' jinslari massivini ajralib yorilish tekisligida portlovchi modda konturlovchi zaryadining buzuvchi ta'sirini boshqarilishini ta'minlovchi turini ko'rib chiqamiz.


Ajralib yorilish yo'nalishini boshqarishning ma'lum bo'lgan usullaridan birinchisi, shpur devoriga uzunlama naqsh chiziqlari paydo bo'lishi hisoblanadi. Ushbu usulni qo'llashni ko'p yillik tajribalarini taxlili shuni ko'rsatadiki, naqshli chiziqlarni bo'lishi ajralib yorilish tekisligini talab etilgan yo'nalishini yetarlicha ishonchlilik va aniqlik bilan ta'minlash imkonini beradi [2; 79-88-b]. Ushbu usulni juda ahamiyatli kamchiligi shundan iboratki, shpur devorida naqshli chiziqlarni hosil bo'lishi bo'yicha samarali texnik yechimlarni mavjud bo'lmasligidir.

Konturli portlatish uchun portlovchi bo'shliq devoriga bevosita portlovchi modda aloqasini borligi bilan xarakterlanadi hamda zaryadlar ichida ularni bajarilishi bo'yicha uchta konstruktiv turini ajratish mumkin:

- portlovchi bo'shliqni butun yuzasi bo'ylab portlovchi modda zaryadlari massiv bilan bog'lanib turadi (2a-rasm);
- portlovchi modda zaryadlari yorib ajratish yo'nalishi bo'ylab massiv bilan bog'lanib turadi (2b-rasm);

- portlovchi modda zaryadlari faqatgina yoʻnaltirilgan yorib ajratish zonasida portlovchi boʻshliq devori bilan bogʻlanib turadi (2v-rasm).

Konturli portlatish uchun zaryadning ushbu guruxlarini asosiy konstruktiv yechimlarini koʻrib chiqamiz.




**2-rasm. SHpur devori bilan portlovchi modda oʻzaro bogʻlanib turgan konturli zaryadni sxemalari**

*1-DSH; 2- portlovchi modda; 3-yogʻochli qolip; 4- TKF markadagi DSH*

Amaliyotda maʼlumki, maydalash zaryadini portlatish natijasida yuzaga keladigan seysmik taʼsirni kamaytirish uchun yoriqdorlik zonasini yoki ekranlab himoyalovchi tirqishni hosil qilish maqsadida konturli portlatishni qoʻllanilishi amaliyotidan skvajinalar sochma past brizantli portlovchi moddalar bilan toʻldirilganligiga doir misollar mavjud [3; 49-58-b].

Ushbu maqsadlar uchun, shuningdek xalqali tor tirqishsiz bir joyga toʻplangan zaryadlar qoʻllaniladi (3-rasm). Togʻ jinslari massivida bunday zaryadlarni portlatishda radial yoriqlar hosil boʻladi. Biroq ularni rivojlanishi atrof boʻylab bir maromda tarqalmaydi [4; 243-249-b].



**3-rasm. Bir joyga toʻplangan konturli zaryadlarning konstruksiyasi**

*1-portlovchi modda; 2-yogʻoch qolip; 3-havo boʻshliq*

Bunday zaryadlarning asosiy kamchiligi zaryad atrofida radial yoriqlarni rivojlanishi hisobiga kontur orti massivining butunligi buzilishi bilan yakunlanadi. Shuning uchun zaryadlarning bunday konstruksiyasi qazib olish ishlarida yaʼni, yer osti kon ishlari sharoitida qavat ostini parchalashda va karerlarda pogʻonalarni qiyalashtirishda kontur orti massiviga portlashni zararli seysmik taʼsirini pasaytirish maqsadida qoʻllaniladi [5; 49-58-b].

Tadqiqot ishlari bajarilishida texnik jihatdan sodda va silliq devorli konturli portlatish ishlari uchun zaryadlarning samarali konstruksiyasi hamda yoʻnaltirilgan yoriqlarni hosil qilish yer osti usulida kristall tarkibli togʻ jinslarini va rudani qazib olish texnologiyalarini takomillashtirishda dolzarb vazifalar boʻlib qolmoqda.

**Natijalar.** Portlovchi modda zaryadlarining mavjud boʻlgan konstruksiyalarini tahlil

qilish shuni ko'rsatadiki - tog' jinslari massivini yo'naltirilgan holda yorilib ajralishi uchun ular portlovchi yuklanish vaqtida yoriqlarni hosil bo'lish xususiyatlariga asoslanadi. Ma'lumki, yoriqlar hosil bo'lish jarayonini ikkita bosqichga bo'lish lozim bo'ladi: yoriqlarni tarqalishi va va ularni kengayishi. Portlashning to'liq ta'sir etish bosqichida portlash bo'shlig'ida o'rtacha bosim o'rnatilishidan oldin, shpur devorida lokal parchalanish yuzaga keladi, portlashni porshenli ta'sir etish bosqichida esa, radial yoki bitta magistral yoriqlarni rivojlanishi sodir bo'ladi. Talab etilgan yo'nalishda yoriqlar hosil bo'lishini samaradorligi va ishonchliligini oshirish uchun konturli portlatish uchun zaryadlarning turli konstruksiyalari ishlab chiqilgan. Konturli portlatish uchun zaryadlarning barcha asosiy konstruksiyalarini ikkita turga ajratish mumkin: massivni tekis devorli (silliq) yorib ajratish uchun va massivni yo'naltirilgan yoriqlar hosil bo'lishi orqali yorib ajratish uchun[6; 29-30-b, 7; 87-88-b, 8; 39-40-b].


O'z navbatida konturli zaryadlarni har qaysi turida ularni ikki guruhga ajratish lozim bo'ladi. Konturli zaryadlarning konstruksiyalarini birinchi yoki ikkinchi guruhga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan asosiy belgilari bu massivni shpur devori bilan yorib ajratish uchun mo'ljallangan portlovchi moddalarning aloqasi borligi yoki yo'qligi hisoblanadi. Portlovchi bo'shliq devorida defekt hosil bo'lishi uchun zaryadlarda qo'zg'atuvchi yoki kontaktli DSH joylashtirish barcha zaryadlarni u yoki bu guruhlarga bog'lashni belgisi hisoblanmaydi[9; 57-59-b].

Birinchi guruh konturli zaryadlar bilan massivni yo'naltirilgan yorib ajratishning samaradorligini oshirish uchun tog' jinslari massivining yorilib ajralish tekisligida portlovchi modda konturlovchi zaryadlarining portlashning parchalovchi ta'sirini boshqarishni ta'minlash uchun bir qator texnologik usullar va qurilmalar qo'llaniladi[10; 49-51-b].

Ushbu ishda portlashdan seysmik ta'sirni kamaytirish va shpur devorlariga beriladigan portlovchi modda detonatsiya mahsulotlarining bosimini kamaytirish uchun ekranlovchi tirqishlar yoki yoriqdorlik zonalarini hosil qilish maqsadida konturli portlatish uchun shpurli zaryadlar konstruksiyasi ishlab chiqilgan.

Gaz-dinamik jarayonlarni olib borilgan raqamli modellashtirish va shpurli zaryadlash kamerasida gaz-dinamik parametrlarini hisoblash natijalariga asoslanib, detonatsiya mahsulotlarini keskin kengayishi va kuchlanish to'liqlarining bir qismini havo bo'shlig'iga yo'nalishiga erishiladi hamda shpur devorlariga ta'sir qiluvchi bosim va kuchlanishning qisman pasayishiga erishiladi, buning natijasida bunday zaryadlarni portlashida tog' jinslari massivida radial yoriqlar hosil bo'ladi. Biroq ularni rivojlanishi aylana bo'ylab notekis holatda sodir bo'ladi va yer osti kon lahimlarini o'tishda kontur orti massivida detonatsiya mahsulotlarining bosimi, kuchlanish to'liqini va portlashni zararli seysmik ta'sirini kamaytirishga erishiladi[11; 118-119-b].

4-rasmda portlovchi modda zaryadi va tiqin orasida havoli bo'shliq hosil bo'ladigan konturli shpurli zaryadlarning ishlab chiqilgan konstruksiyasi keltirilgan.



**4-rasm. Konturli shpurli zaryadlarning ishlab chiqilgan konstruksiyasi**  
*1-tiqin; 2-detonatsiyalovchi shnur DSHE; 3-havoli bo'shliq; 4-jangavor patron; 5-patronlashtirilgan portlovchi modda; 6-oraliq bo'shliqni hosil qilish uchun tiqin.*

Shpur zaryadlarini qo'llash uchun taklif etilayotgan va ishlab chiqilgan konstruksiya kon lahimlarini loyihaviy konturini ta'minlash maqsadida konturli shpurlarda portlatish ishlarini olib borish uchun ishlatiladi.

Zaryadlash usuli o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- patronlashtirilgan portlovchi modda zaryadlarini joylashtirish;
- detonatsiya shnuri bilan jangavor patronni o'rnatish;
- havoli bo'shliqni hosil qilish uchun tiqinni o'rnatish;
- tiqinni shakllantirish.

**Xulosa.** O'tkazilgan tadqiqotlar asosida tekis portlatish uchun ishlab chiqilgan konturli shpurlar konstruksiyasi bilan yer osti kon lahimlarini o'tishda portlatish ishlarining asosiy ko'rsatkichlarini xisoblashning uslubi taqdim etilgan. Portlovchi modda zaryadi va zaboyka orasida havoli bo'shliq qoldirish asosida konturli shpur zaryadlarining yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi. Portlovchi modda shpurli zaryadlari bilan yer osti kon lahimlarini qazib o'tishda, gaz dinamik jarayonlarni, yoriqlar hosil bo'lish radiusini, portlash mahsulotining bosimi va zaryad bo'shlig'idagi kuchlanish to'liqlarining parametrlarini hisobga olgan holda, burg'ilash-portlatish ishlari parametrlarini hisoblash metodikasi taklif etilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андреев Р.Е. Повышение эффективности контурного взрывания при проходке горных выработок глубоких горизонтов подземных рудников // Дисс...канд. тех.наук.-Санкт-Петербург, 2009. –137 с.
2. Фугзан М.И. Изучение действия взрыва в предварительно напряженной среде // Физико-технические исследования разработки и обогащения руд. М.: 1973 . –248 с.
3. Нурхонов Х.А. Классификация методов контурного взрывания подземной разработки месторождений полезных ископаемых // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2019. – №4. – С. 55-56 (05.00.00; №7).

4. Нурхонов Х.А., Каримов Ё.Л., Хужакулов А.М., Латипов З.Л. Методика расчета параметров контурного взрывания предварительного щелеобразования // Горный вестник Узбекистана. – Навои, 2020. – №2. – С. 83-86 (05.00.00; №7).
5. Akbarov T.G., Toshtemirov U.T., Nurkhanov Kh., Khojakulov A. Recommended Support Structures for Excavations in Difficult Mining and Geological Conditions // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – India, February 2020. – Vol. 7. – Issue 2. – pp. 12798-12802 (05.00.00; №8).
6. Nurxonov X.A., Mansurova S.A. Qisqa muddatli portlash sodir bo'lganda tog' jinslarining buzilish radiusini aniqlash orqali burg'ulash-portlatish ishlari pasporti parametrlarini ishlab chiqish // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 1. – Issue 1. – Tashkent, 2021. – pp. 147-150. ISSN 2181-1784 (SJIF 2021: 5.423).
7. Нурхонов Х.А. Результаты исследования характера распределения напряжений вокруг зарядов сложной конструкции // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2. – Issue 5/2. – Tashkent, 2022. – pp. 756-760. ISSN 2181-1784 (SJIF 2022: 5.947).
8. Нурхонов Х.А. Способы снижения интенсивности выбросов породы с использованием зарядов специальной конструкции // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2. – Issue 6. – Tashkent, 2022. – pp. 536-540. ISSN 2181-1784 (SJIF 2022: 5.947).
9. Нурхонов Х.А., Мислибаев И.Т., Назаров З.С. Обоснование конструкций шпурового заряда для контурного взрывания при проходке горизонтальных подземных выработок // Инновационные технологии. – Карши, 2022. – №3. – С. 3-6. (05.00.00; №38).
10. Мислибаев И.Т., Нурхонов Х.А. Методика расчета параметров для гладкого взрывания для обеспечения сохранности проектного контура в условиях рудника Каракутан // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – Vol. 2. – Issue 9. – Tashkent, 2022. – pp. 412-421. ISSN 2181-1784 (SJIF 2022: 5.947).
11. Nurkxonov Kh.A., Misliboev I.T. Design of contour explosion parametrs // Web of scientist: international scientific research journal. – Indonesia, Nov., 2022. – Vol. 3. – Issue 11. (WoS) – pp. 605-611. ISSN: 2776-0979 (SJIF 2022: 5.949).

## TABIIY GAZNI NORDON KOMPONENTLARDAN TOZALASHDA SELEKTIVLIGI YUQORI BO'LGAN AMINLI ERITMALARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

*T.R.Yuldashev*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

**Annotatsiya.** Nordon gazlarni tozalashda selektivligi yuqori bo'lgan aminlarni tanlash shartlari va mezonlari ko'rib chiqilgan. Aminli tozalashda har xil mono- va dietanolaminli eritmalar qo'llaniladi va ular yordamida tabiiy gazning tarkibidan vodorod sulfid, merkaptanlarni va uglerod gazlari olib chiqiladi. Maqolada kislotali gazlarni aminli tozalashning samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar va texnik-iqtisodiy maqsadga muvofiqliligi muhokama qilingan. Oltingugurtdan aminli tozalashda sodir bo'ladigan asosiy jarayon bu-massaalmashinuv qurilmalarida ta'minlangan kolonnali apparatdagi (absorberda) vodorod sulfidni absorbsiyasi, merkaptanlar va uglerod ikki oksidi absorbsiyasi hisoblanadi. Tozalash jarayonlari uchun katta miqdordagi har xil turdagi yutgichlar ishlangan va ishlab chiqariladi.

**Kalit so'zlar:** selektivlik, absorbsiya, desorbsiya, aminli eritmalar, nordon komponentlar, regeneratsiya jarayonlari, aminli texnologiyaning kamchiliklari.

## EFFICIENCY OF USING AMINE SOLUTIONS WITH HIGH SELECTIVITY IN CLEANING NATURAL GAS FROM ACIDIC COMPONENTS

*T.R.Yuldashev*

*Karshi Engineering-Economics Institute*

**Abstract.** Conditions and criteria for choosing amines with high selectivity in sour gas purification are considered. In amine treatment, various mono- and diethanolamine solutions are used, and with their help, hydrogen sulfide, mercaptans and carbon gases are removed from the composition of natural gas. The article discusses the factors affecting the efficiency of amine purification of acid gases and feasibility of technical and economic feasibility. The main process that takes place in amine desulfurization is the absorption of hydrogen sulfide, mercaptans and carbon dioxide in the column apparatus (absorber) provided in mass exchange devices. A large number of different types of absorbers are designed and manufactured for cleaning processes.

**Keywords:** selectivity, absorption, desorption, amine solutions, acidic components, regeneration processes, disadvantages of amine technology.

**Kirish.** Ishlarni olib borish jarayonida quyidagilar aniqlanadi: ekspanzer va nordon, xom hamda tozalangan gazlarning komponent tarkibi, regeneratsiyalangan nordon komponentlarning va yutgichning sarfiga bog'liqligi holda tozalanadigan gazning sarfidagi

to‘yingan eritmadagi tarkibi, asosiy jarayonning tozalanish ko‘rsatgichiga bog‘liqligi, aminli oltingugurtdan tozalashda vodorod sulfidning, merkaptanlarni va uglerod ikki oksidini massaalmashinuv qurilmalaridagi ta‘minlangan kolonnali apparatidagi sodir bo‘ladigan absorbsiyasi hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Oltingugurtdan tozalash qurilmasining ish ko‘rsatgichlari, gazni tozalash sifati va selektivligi qo‘llaniladigan massaalmashinuv qurilmalari va yutgichlarning turiga bog‘liqdir. Yutgichlar va gaz-eritma kontakt vaqtining o‘zgarishi, yutgichlarning solishtirma sarfi, yutuvchanlik qobiliyati, jarayonning bug‘ sarfi va parametrlarining rejimlari hamda absorbsiya va desorbsiya jarayonlaridagi eritmada shakllanuvchi moddaning miqdori ishlangan bo‘lib, katta konsentratsiyada ishlab chiqariladi.

Tabiiy gazlar uglevodorodlar bilan bir qatorda nordon gazlar, uglerod ikkioksidi ( $\text{CO}_2$ ), vodorod sulfid ( $\text{H}_2\text{S}$ ), merkaptanlar ( $\text{RSH}$ ) va boshqalarning tarkibidan iborat, qaysiki, aniq sharoitlarda tashish va gazlardan foydalanish jarayonini murakkablashtiradi. Qayta ishlashda, tashishda va foydalanishda mumkin bo‘lgan murakkabliklarni oldini olishda tabiiy gazdagi keraksiz komponentlarning tarkibi bo‘yicha o‘rnatilgan meyoriy ko‘rsatgichlarga erishishga yo‘naltirilgan zaruriy chora tadbirlarning rejasi oldindan ishlab chiqiladi. Shularni hisobga olgan holda gazlarni tozalash jarayonlari texnologiyalari va yutgichlarni oralig‘idagi asosiy mezonlarni tanlashda “keraksiz” komponentlarni belgilangan holda chuqur olib chiqishga erishish mumkinligi va ulardan kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun ko‘rib chiqiladi.

Ishlab chiqarish sanoatida katta sondagi usullar va texnologiyalar qo‘llaniladi qaysiki, ular tozalash vositalari (yutgichlar), nordon komponentlarni tozalash ko‘rsatgichlari va qayta ishlanadigan xomashyoni hajmlari bo‘yicha farq qiladi [1, 2, 3, 6].

Sho‘rtan gaz qazib chiqarish boshqarmasi kamoltingugurtli tabiiy gazlarni (vodorod sulfidning tarkibi 0,08%) qayta ishlashda O‘zDSt 948 tovar gazni olish talabiga javob beruvchi hamda SUG (suyultirilgan uglevodorod gazi), barqaror kondensatni va oltingugurt elementini olish maqsadiga mo‘ljallangan. Hozirgi vaqtda tabiiy gazdagi xomashyoda vodorod sulfidning tarkibi 0,12 — 0,14 % ni tashkil qiladi. Nordon gazlarni olib chiqish jarayoni seolitlar asosidagi adsorbsiya usulida amalga oshiriladi. Seolitli adsorbsiya tozalash qurilmasining normal ish rejimlarida nordon gazlarning komponentlari bilan to‘yingan ( $\text{H}_2\text{S}$  va  $\text{CO}_2$ ) kamoltingugurtli tabiiy gazning regeneratsiya gazlarini shakllantiradi qaysiki, ASO-1,2 aminli oltingugurtdan tozalash qurilmasiga yo‘naltiriladi. ASO-1,2 qurilmasi dietanolaminli absorbent bilan nordon komponentlardan ( $\text{H}_2\text{S}$  va  $\text{CO}_2$ ) regeneratsiya gazini tozalash uchun mo‘ljallangan. ASO-2 ning mahsulotlari gazni regeneratsiyasida nordon komponentlardan tozalangan hisoblanadi qaysiki, u magistral gazuzatmasiga yo‘naltiriladi. Tozalash jarayonida yutuvchi eritma sifatida 20-25%li DEAning suvli eritmasidan foydalanilgan. Gazlarni regeneratsiyasi tozalash jarayonida konsentratsiyalangan nordon gaz ajratiladi qaysiki, u vodorod sulfid bo‘yicha o‘zgaruvchan yuklama sharoitida to‘g‘ri oksidlanish usuli bilan oltingugurt elementini olish qurilmasiga yo‘naltiriladi.

ASO-2 qurilmasida (“Sho‘rtan gazni qazib chiqarish boshqarmasi”) gazlarni tozalashni regeneratsiyasi jarayonida aminli absorbentni qo‘llanilish sifatida dietanolaminni kamchiliklar bilan tavsiflanganligi ya‘ni, korroziya faolligining yuqori darajasi, eritgichlar sarfining

yuqoriligi, nisbatan eritgichlarning ko'p yo'qotilishi, uning regeneratsiya jarayoniga energiya sarflarining yuqoriligi va DEAning xossalari bilan bog'liqligi kabi kamchiliklar uchragan. Tadqiqotning asosiy maqsadi aminli tozalash usullaridan foydalanib gazni nordon komponentlardan tozalash jarayoni hisoblanadi hamda uning ekspluatatsiya qilish jarayonidagi muammolarni yomonlashtirishga olib keluvchi samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarni tezroq yechish masalalarini talab qilinadi.

H<sub>2</sub>S va CO<sub>2</sub> larning aminlar bilan o'zaro ta'siri aminlarning turiga bog'liq holda sodir bo'ladi. Azot atomida o'rindoshning mavjudligi aminning reaksiyalanish qobiliyatiga bog'liq.

MDEA (uchlamchi amin) MEA va DEA bilan taqqoslanishi bo'yicha vodorod sulfidni olib chiqish minosobatda ko'proq selektiv ya'ni, odatda absorbsiyalanmagan uglerod ikki oksidining miqdori bilan tavsiflanadi [1, 4, 5].

H<sub>2</sub>S va CO<sub>2</sub> larni aminlar bilan reaksiyalanish tezligidagi farqlari ya'ni, H<sub>2</sub>S ni aminlar bilan yutilishida massauzatish qarshiligi gaz fazasida to'plangan, CO<sub>2</sub> ni yutilishida esa -suyuqlikda yutilishga olib keladi. MDEAning H<sub>2</sub>S (bir zumdagi reaksiyasi) va CO<sub>2</sub> (sekin reaksiyasi) reaksiya tezliklaridagi farq ikkilamchi aminlarga nisbatan juda tez boradi. Vodorod sulfid bilan tez reaksiyaning va CO<sub>2</sub> bilan sekin reaksiyasi samarasi aralashmadan vodorod sulfidni CO<sub>2</sub> metildietanolaminom bilan olib chiqishni selektivligida foydalaniladi [5]. Bunda absorber shunday o'lchamlarga ega bo'lishi kerakki, unda gazni kontaktda bo'lish vaqtini, hamma vodorod sulfidni amalda yutilishi uchun yetarlicha bo'lishi, uglerod ikki oksidini amaliy miqdorda olib chiqish uchun yetarli bo'lmasligini ta'minlashi kerak. Vodorod sulfid bo'yicha jarayonning selektivligi gaz-suyuqlik kontakt vaqtini kamayishi bilan oshadi.

MDEA CO<sub>2</sub> mavjud bo'lganda H<sub>2</sub>S ni selektiv olib chiqish imkoniyatini ta'minlaydi, shu bilan birgalikda nordon gazda H<sub>2</sub>S ning ulushini oshiradi. MDEAning afzalligi xuddi selektiv yutgich kabi kamoltingugurtli gazlarni tozalashda namoyon bo'ladi qaysiki, H<sub>2</sub>S ning nisbati CO<sub>2</sub> ga nisbatan 1 dan kam [4].

Selektiv texnologiyaning kamchiligi tashiladigan tovar gazda CO<sub>2</sub> ni ballastining oshishi hisoblanadi.

Kombinatsiyalangan yutgich DEA va MDEAning ijobiy xossalari hisoblanadi, lekin aminlarni aniq nisbatlarda ushlab turishda qiyinchilikni yaratadi.

#### ***MDEAning DEAgga nisbatan afzalliklari quyidagilardan iborat:***

- DEA bilan taqqoslash bo'yicha yuqori termik barqarorlik va eritmaning kichik korroziya faolligi;
- H<sub>2</sub>S va CO<sub>2</sub> reaksiya issiqligining kichikligi ya'ni, absorbentning regeneratsiyasiga issiqlikning miqdorini kamaytirishning imkoniyati;
- karbon kislotalari va korroziya ingibitorlari bilan reaksiyasida regeneratsiyalanmaydigan amidlarni shakllantirmaydi, shunday qilib, aminni yo'qotilishi sodir bo'lmaydi, issiqlik almashgichning ichki yuzalarida qattiq cho'kindilar shakllanmaydi;
- to'yingan bug'larning bosimini pastligi tufayli uchuvchanlik evaziga aminning yo'qotilishi kamayadi;
- MEA va DEAning kerakli sarflari MDEA ga nisbatan biroz yuqoridir.

### ***Jarayonning parametrlarini va massaalmashinuv qurilmalarini absorbsiya jarayoniga yutgichlarning aralashishini ta'sirini tahlili***

MDEA vodorod sulfidga nisbatan katta yutilish faolligiga ega. MDEAning CO<sub>2</sub> bilan sekin reaksiya tezligi amaliy ko'rsatgichgacha bartaraf qilingan bo'lishi, bir yoki ikki kimyoviy faol birlamchi yoki ikkilamchi aminlarni qo'shib aminlarni suvda aralashmasini shakllantirish mumkin.

Bundan tashqari MDEAni CO<sub>2</sub> bilan sekin reaksiya tezligi absorberdagi parametrlar, konstruksiyalar, likopchalarning turi (nasadkalar) bilan egallanishi mumkin ya'ni, bunda uni suyuqlik tarkibida bo'lib turishning (kontakt) mos bo'lgan vaqti ta'minlanadi. CO<sub>2</sub> ning asosiy miqdorini yo'qotish uchun MDEAdan samarali foydalanish uchun uni suyuqlik fazasida bo'lish vaqti CO<sub>2</sub> ning reaksiyasini bo'lib o'tishi uchun yetarlicha ko'p vaqtga ega bo'lishi zarur. Pastroq bosimlarda juda ham reaktiv amin qo'shilganda eritmani CO<sub>2</sub> ni olib chiqish qobiliyatini kuchaytiradi.

Shunday qilib, MDEA qo'llaniladigan sohada tovar gaziga qo'yilgan talablar bajarilmasligi, aminning aralashmasidan foydalanish qurilmaning ishini yaxshilashi mumkin.

#### ***Aminli tozalashning texnologik jarayonining ketma-ketligi***

Absorbsiya jarayoni kolonna turidagi apparatda olib boriladi ya'ni, absorberda.

Kimyoviy ta'sir qilish reaksiyasi suyuqlik fazasida absorberning nasadkasi (likopchani) kontakt yuzalarida bo'lib o'tadi ya'ni, bunda uzluksiz qarshi oqimda xomashyo oqimlarining kontaktida: tabiiy gazning - pastdan yuqoriga va aminli eritmaning - yuqoridan pastga oqimida.

Fazalarning kontaktlashish jarayonida H<sub>2</sub>S va CO<sub>2</sub> larning suyuq yutuvchilari bilan kimyoviy birikmalarni shakllantirib xemosorbsiyasi amalga oshiriladi.

Aminli eritmalarini nordon komponentlar bilan to'yinishi aminni - desorberda bug'lantirish kolonnasida regeneratsiyalanadi u yerda, kimyoviy reaksiyani amingacha va gazlarni esa issiqlikni yutilishida (endotermik reaksiyasi) parchalanishi sodir bo'ladi. Desorbsiya jarayoni bosimni pasayishi va haroratning oshishi hisobiga bo'lib o'tadi. Barqaror ishlar rejimini ta'minlash maqsadida tizimga qarshi ko'piklanuvchi kiritiladi.

Gazni aminli eritmalar bilan oltingugurtdan tozalash qurilmasi ishining ishonchliligi quyidagi sharoitlarda pasayadi:

- aminlarning destruksiyasini qo'shimcha reaksiyalar va termik parchalanish hisobiga;
- jihozlarni va mahsulotuzatmalarni korroziyasi;
- smolanishi;
- gazni tozalash (quritish) tizimida ko'piklanish;
- quvurlarni va jihozlarni yuzasida qattiq aralashmalarning cho'kishi.

Tizimda ko'piklanishni jadallashuvining mavjudligi absorbentning yo'qotilishi va tovar gazning sifatini yomonlashishga olib keladi. Ko'pik shakllanishning tashqi belgilari kolonnada bosimni keskin tushishini oshishi hisoblanadi.

Korroziya tezligi juda ko'p o'zgaruvchan kattaliklarga bog'liq. Qo'llaniladigan aminlarni korroziya faolligi quyidagi tartibda pasaytiriladi: MEA, DEA, MDEA.

Korroziya tezligiga nordon gazdagi CO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>S larning nisbiy miqdorlari ham ta'sir ko'rsatadi. Nordon gazdagi CO<sub>2</sub> uglerod gazi H<sub>2</sub>S ga nisbatan korrozion hisoblanadi. Bunday holatda nordon gazdagi CO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>S larning konsentratsiyasi mutloq aniqlovchi parametr hisoblanmaydi, ularning konsentratsiya nisbatlari qaynoq aminli eritmaning tarkibini aniqlaydi. Bundan tashqari korroziyaga xuddi fizik va kimyoviy parametrlar ham ta'sir qiladi hamda korroziya jarayoni jihozlarni qanday po'latlardan tayyorlanganligiga ham bog'liqdir.

Korroziya tezligi haroratning oshishi va eritmadagi CO<sub>2</sub> ning konsentratsiyasini oshishi bilan ko'tariladi, shuning uchun ularning tarkibi eritmada oshganda filtratsiyaga beriladigan eritmaning miqdorini oshirish zarurligi hisoblanadi.

Metallning yuzasida temir sulfidning eroziyasi mavjud bo'lmaganda himoya pardasi yaratiladi. Buni hisobga olgan holda eng to'yintirilgan eritma kam tarkibdagi CO<sub>2</sub> ni va katta tarkibdagi H<sub>2</sub>S ni gazlardan tozalashga ruxsat etiladi.

### ***Aminli tozalash samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar va tozalash jarayonini olib borish tartiblari***

Aminli tozalash texnologiyasining eng asosiy kamchiliklaridan biri aminli eritmalarning regeneratsiya haroratining yuqoriligi va kislorodning mavjudligida parchalanishi hisoblanadi. Bundan tashqari alkanolaminning kationlari organik (aminni degradatsiya mahsulotlari) va noorganik kislotalarni anionlari bilan o'zaro ta'sirlanishi natijasida issiqlikga chidamli tuzni (ICHT) shakllantiradi. ICHT barqaror va eritgichlarni regeneratsiyasi uchun namunaviy sharoitda parchalanmaydi.

Absorbsiya tizimida ICHTlarni to'planishi ekspluatatsiya muammolariga olib keladi, ya'ni, CO<sub>2</sub> ning absorbsiya xususiyatlarini pasaytirish va uning fizik-kimyoviy xossalarini pasaytirish, xuddi korroziya faolligini oshirish, tiqilib qolish va jihozlarni eroziyalanishi kabi holatlarni keltirib chiqaradi. ICHTlar aminli eritgichlardan distillyatsiya (ionli almashishi) yoki elektrodializ (YED) yordami bilan olib chiqilishi mumkin. Ammo ikkala yondashuv holati ham ICHTlarni komponentlari bilan bilan birgalikda zaryadlangan zarrachalarni ham olib chiqish holatini keltirib chiqaradi va parchalangan neytral mahsulotlarni olib chiqish uchun qo'shimcha ishlov berish talab qilinishi mumkin, xuddi qumli filtr va faollashtirilgan ko'mir kabi.

ICHT texnologik gaz va suyuqlikda ba'zi bir kislotali komponentlarni mavjudligi sababli shakllanadi ya'ni, amin bilan ICHTni shakllanishi bilan qaytmas reaksiyalarni olib keladi. Bunday ifloslantirgichlarning tarkibiga xlorid, sulfat, formiat, atsetat, oksalat, tiotsinat va tiosulfat qo'shiladi. Shakllangan tuzlar nisbatan mustahkam kimyoviy bog'lanishga ega qaysiki, aminning sirkulyatsiyasi konturida ICHTlarni sekin asta to'planishga olib keladi, ICHTlarning miqdorini ruxsat etilgan chegaradan oshganda ekspluatatsiya qilishda va texnik xizmat ko'rsatishda bir qator muammolar paydo bo'ladi.

### ***Aminli oltingugurtdan tozalash jarayonini modellashtirish***

Aminli oltingugurtdan tozalash jarayonini va optimal variantdagi eritmani jarayonini modellashtirish ishlab chiqilgan qurilmasini o'rganilgandan keyin ekspluatatsiya qilish muammolari hisobga olinadi. Hisoblar aminli eritmani, metildietanolamin (MDEA) va dietanolamin (DEA)ni optimal fraksion tarkibini aniqlash maqsadida olib boriladi.

Hisoblarda MDEA va DEA larning har xil nisbatlari qo‘llaniladi qaysiki, bunda tabiiy gazning meyoriy sifatli tavsiflariga erishiladi.

1-jadval

**Modellashtirishni asosiy ko‘rsatgichlarini taqqoslash**

Aminli eritmalar	Gazning sarfi, $1 \cdot 10^3 \text{ m}^3/\text{h}$	Aminning sarfi, $\text{m}^3/\text{h}$	Sol. sarf $\text{l}/\text{m}^3$	Issiqlik energiyasi		Tozalangan gaz		Нордон газ (н.г.)		
				G $\text{cal}/1 \cdot 10^3 \text{ m}^3$	G $\text{cal}/1 \cdot 10^3 \text{ m}^3$	H <sub>2</sub> S $\text{mg}/\text{m}^3$	CO <sub>2</sub> , %	H <sub>2</sub> S, %	CO <sub>2</sub> , %	N.g.nin g sarfi. $\text{m}^3/\text{h}$
15 % DEA+15 % MDEA (30 % amin +70 % H <sub>2</sub> O)	150	170	1,13	0,138	20,709	2,69	0,20	24,482	67,284	5557,79
12 % (60 %) DEA+8 % (40 %)MDEA (20 % amin +80 % N <sub>2</sub> O)	120	160	1,33	0,168	20,205	2,56	0,03	24,54	67,22	4442,00
20 % MDEA+80 % H <sub>2</sub> O	150	155	1,03	0,128	19,299	3,6	1,06	32,670	58,876	4174,60
30 % MDEA+70 % H <sub>2</sub> O	120	115	0,958	0,149	17,924	2,14	0,85	32,10	59,51	3396,00
15-20 % (DEA+MDEA)+8 5-80 % H <sub>2</sub> O (haqiqiy)	121	230-260	1,8 - 2,7	0,163	24,3 (19,72)	4,6-6,9	0,23-0,30	-	-	-

Har xil kombinatsiyali aminlardan foydalanib oltingugurtdan tozalash jarayonini modellashtirishda va loyihaga nisbati bo‘yicha past bosimlarda kirish OzDst 948 standart talablarning hisobga olinganligini hisoblash natijalaridan ko‘rinib turibdi.

Modellashtirishning asosiy tahliliy ko‘rsatgichlari 1-jadvalda keltirilgan. Nordon komponentlarning tarkibi bo‘yicha eng oxirgi eritmadagi aminli reagentlarni nisbatlari bo‘yicha nordon komponentlar tarkibining normativ qiymatlariga erishish uchun aminli eritmaning massali sarfini bog‘liq ko‘rsatgichlarining natijalari 1-jadvalda keltirilgan .

**Xulosa.** Tabiiy gazlarni qayta ishlashga tayyorlashning asosiy bosqichlari nordon aralashmalardan, birinchi navbatda vodorod sulfiddan va uglerod ikki oksididan tozalash hisoblanadi, natijada tovar gazi va nordon gazlar hamda gazli oltingugurt ishlab chiqarish uchun xomashyo shakllantirish muammolari ko‘rib chiqilgan. Ammo alkanolaminlar bilan absorbsiyalash texnologiyasining jiddiy kamchiliklari mavjudligi tahlil qilingan: aminlarni

regeneratsiyasida energetik xarajatlarning yuqoriligi, aminlarning destruksiyasi, har xil aralashmalar bilan ifloslanishi, absorbsiyada ko'piklanish va b.lar muammoligi bo'yicha qolmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Коренченко О.В., Харламова М.Д. Эффективность применения метилдиэтанолamina в процессе аминовой очистки газов // Химические науки.- 2017.- №2 (56).- С.94-98.
2. Новые материалы для очистки этаноламиновых растворов / А.Ю. Аджиев, Ю.Н. Борушко-Горняк, Н.В. Монахов, В.В. Мельчин // Газовая промышленность. - 2003. - № 12. - С. 60-62.
3. Yuldashev T.R., Maxmudov M.J. // Tabiiy gazni nordon komponentlardan absorbsion usullarda tozalash texnologiyasi. Monografiya. Qarshi – “INTELLEKT” nashriyoti – 2022. – 210 bet .
4. Yuldashev T.R., Maxmudov M.J., // Tabiiy gazlarni nordon komponentlardan tozalash. BMTI. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti ilmiy – texnikaviy jurnal. 2022. – №2 – 82-95 betlar.
5. Yuldashev T.R., Makhmudov M.J., Ametova D.M. Purification of industrial gases from dispersed particles - Science and Education in Karakalpakstan. №3/1 (26) 2022. ISSN 2181-9203-79-90 pag.\
6. Yuldashev T.R., Makhmudov M,J.Cleaninng of Natural from Sobe Component. Journal of Siberian Federal University. Engineeng & Technologies 2023, 16(3): 296-306/ Journal of Siberian Federal University.

### TABIIY GAZLARNI VODOROD SULFID VA UGLEROD OKSIDLARIDAN TOZALASHDA QO'LLANILADIGAN ABSORBENTLAR

*T.R.Yuldashev*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti*

Mavzuning maqsadi– mehnatni muhofaza qilish tizimini iqtisodiy-ijtimoiy tizimining bir element sifatini ko'rib chiqish va mehnat xavfsizligini boshqarish tizimini “qora quti” intellektual modeli asosida baholash hamda o'zgarishlar jarayonini modelini shakllantirish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

- iqtisodiy-ijtimoiy tizimida mehnatni muhofaza qilish tizimi o'rni va rolini aniqlash;
- tizim tushunchasi va uni mehnat xavfsizligini boshqarishni baholashdagi ahamiyatini ko'rib chiqish;
- mehnat xavfsizligini boshqarish tizimiga “qora quti” modelini qo'llash orqali uning samaradorligini baholash va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Har qanday iqtisodiy sohaning rivojlanishi, jumaladan, mehnat xavfsizligini boshqarish jarayonlarini ham yil (asr) lar davomida olib boriladigan ilmiy nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida rivojlanib, takomillashib boradi hamda sinovdan o'tganlari hayotga tadbiriq etiladi.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimini rivojlanish mummolarni o'rganish masalalariga katta hissa qo'shgan olimu-tadqiqotchilar: A.M. Babich, N.A. Volgin, N.N. Gritsenko, E.V. Egorov, E.N. Jiltsov, V.I. Jukov, G.A. Komissarova, A.E. Kotlyar, B.V. Rakitskiy, G.Ya. Rakitskaya, N. Adamov, L.P. Xrapylina, F. Gabdrahmanov, V. D. Roik, N. E. Sorokina, V. G. Makushin, G. Kuznetsov, Shcherbakov A. I. kabi ko'plab olimu-tadqiqotchilar o'z asarlarini Mehnatni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlagan bo'lsa, mehnatni muhofaza qilish masalalarini tizimlash uning modelini shakllantirishda: A.D. Hall “tizimni o'zaro bog'liq bo'lgan qismlardan tashkil topgan yaxlit, mavhum yoki real narsa” deb ta'riflaydi [1]. Kircher Pauell: “tizim - bu bir-biri bilan aloqada va bog'liq bo'lgan va butun birlikni tashkil etuvchi elementlar to'plami” deb ta'rif beradi [2].

M. Mesarovich, A.N. Averyanov, E.M. Korotkov, G.M. Elfimov kabi olimlar tizimlar nazariyasini “atrof-muhitdan ajratilgan va u bilan bir butun sifatida o'zaro ta'sir qiluvchi o'zaro bog'liq elementlar to'plami” sifatida ko'rib chiqishni taklif qiladilar [3].

**Tadqiqot natijalari.** Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi keng ijtimoiy-iqtisodiy makonda o'tkazadigan murakkab, ko'p omilli, ko'p bosqichli hodisa sifatida o'rganilishi mumkin. O'rganish jarayonini muallif, ko'plab sohalaridagi ilmiy tadqiqotlarda muvaffaqiyatli qo'llaniladigan [4], lekin, Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi tadqiqotlarda hali to'liq foydalanilmagan, kategorik-ramziy "qora quti" modelidan foydalanildi. Bu jarayoni zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beradigan, uni isloh qilish jarayonining mohiyatini aks ettiradigan, mamlakat, mintaqa yoki korxonada mehnatni muhofaza qilish tizimini o'zgartirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlaydigan Mehnatni muhofaza qilish modelini

ishlab chiqish orqali amalga oshirildi.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimini o'rganishni tizimli tahlil metodologiyasi doirasida ko'rib chiqish, "tizimlilik" tushunchasiga aniqroq ta'rif berishni, uning uchta jihatini: tizim nazariyasi, tizimli yondashuv va tizim tushunchalariga aniqlik kiritib olishimiz lozim.

Tizim - bu o'zaro bog'langan va o'zaro munosabatda bo'ladigan elementlar yig'indisi-ki, unda ular o'rtasidagi ichki aloqalar quvvati tashqi aloqalar quvvatidan katta va xususiyatidan farqli yangi mujassamlangan xususiyatga ega bo'lgan, ma'lum maqsadga yo'naltirilgan majmuadir. Uning elementlari: tizimning uzviy qismi bo'lib, u tashqi xususiyatlari nuqtai nazardan bo'linmaydigan mustaqil ob'ekt deb tushuniladi. Bularga:

- real ob'ektlar (korxonalar, energiya, buyum va h.k)
- informatsiya-tizim elementlari va tizim xolati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ongli ob'ektlar –ongli tasvirlangan biror narsalar xolati.

Elementlar xolati – statik, dinamik va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin.

- tizimni bir haqiqiy xolatini bildiruvchi vektor;

$$\overline{X_x} = X_1, X_2, \dots, X_n$$

- tizimni bir xolatini bildiruvchi vektor;

$$X_{bx}^* = X_1^*, X_2^*, \dots, X_n^*$$

- shartli vektor;


$$X_{III}^* = X_1^{III}, X_2^{III}, \dots, X_n^{III}$$

- tizimini boshqaruv parametrlari vektori;

$$X_{60III}^* = X_1^6, X_2^6, \dots, X_n^6$$

- cheklov vektori.

$$\overline{X_{чек}} = X_1, X_2, \dots, X_n$$



**1 rasm. Tizimning tarkibiy turlari**

Tizimlar nazariyasi “tizim” ni ilmiy bilish nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi va turli tabiatdagi tizimlar tuzilishi, ishlashi va rivojlanishini tushuniladi. Prinsiplardagi ma'lum umumiylik, tizimli dunyoqarashi uni o'rganish yoki boshqarish jarayonida har qanday

mavhum yoki jismoniy ob'ektga ta'sir qilish usullari majmui bo'lgan tizimli yondashuv ob'ektning integral xususiyatlarini tahlil qilish, uni turli nuqtai nazardan ko'rib chiqish, ichki va tashqi aloqalari shuningdek qonuniniyatlari ko'pligini hisobga olgan holda ko'rib chiqadi [5].

Xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarda tizimga berilgan ko'plab talqinlarini keltirish mumkin.

Tizim keng ma'noda - bu muayyan maqsadni hal qilish uchun bir butunga birlashtirilgan maxsus elementlarni maxsus birlashishi. Ya'ni, tizim nazariyasi asoschisi A.A. Bogdanov, har qanday murakkab tizimlar xatti-harakati va tuzilishini tartibga soluvchi universal tashkiliy qonunlarni umumlashtirgan, tabiatda va inson faoliyatida tashkil etish usullarini belgilovchi jarayonlardir deb ta'kidlaydi. Bogdanov nazariyasining jahon iqtisodiyotidagi roli-tizimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish uchun tashkiliy usullarni rivojlanish yo'nalishini aniqlash va mavhum sxemalar shaklida ushbu usullarni modellashtirish imkoniyatini beradi [6].

Mehnatni muxofaza qilish qonunchiligida, "Mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi" deb belgilangan.[7]

Muallif olib borgan izlanishlariga ko'ra, Mehnat muxofazasiga quyidagi tarifni beradi "Mehnat xavfsizligini ta'minlash majburiy talablar bo'lib, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar ko'p qirrali tizimi, bu ish jarayonida ishchilar hayoti va sog'lig'ini saqlashni ta'minlaydigan va mehnat sharoitlarini belgilaydigan tashqi va ichki muhiti o'zgarishiga qarab uzluksiz va doimiy o'zgarish jarayonini boshdan kechiradigan faoliyatni ta'minlovchi mehnat, moddiy, nomoddiy va axborot resurslarini optimal sarflash bilan maksimal ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik erishish mumkin bo'lgan mehnat sharoitlari" deb ta'kidlaydi.[8].

Tadqiqotchi O.V. Usikova "hozirgi mehnatni muhofaza qilish tizimini iqtisodiy ta'minlash va boshqarish xususiyatlarini aks ettiruvchi uchta funksional yo'nalish: ta'minot, boshqaruv va elementlar bloklari to'plamidan iborat: " deb ta'riflaydi.

Ta'minot bloki ish joyida xavfsiz sharoitlar va Mehnatni muhofaza qilish uchun zarur resurslarni ifodalaydi va quyidagi turlarini o'z ichiga oladi:

- 1) Huquqiy;
- 2) Iqtisodiy;
- 3) Ijtimoiy;
- 4) Axborot.

Boshqaruv bloki tegishli jarayonlar va bo'g'inlarni ifodalaydi:

- 1) Mehnat xavfsizligini boshqarish (boshqaruv tizimlarini yaratishga asoslangan mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishdagi fundamental jarayon);
- 2) kasbiy xavflarni boshqarish (xodimlarning kasbiy risklari darajasini aniqlash, baholash va kamaytirishga qaratilgan o'zaro bog'liq tadbirlar majmuasi).

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi elementlari bloki, bular:

- 1) sanoat sanitariyasi va xavfsizligi;

- 2) texnik estetika;
- 3) ergonomika va boshqalari[9].

Muallif fikricha, O.V. Usikova taklif etgan bloklarga qo'shimcha tashkiliy blokni kiritishni taklif etadi. Bu blok mehnatni muhofaza qilish tizimini o'zgartirish jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni o'z ichiga oladi va quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi.

- 1) ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish va raqamlashtirishni jadallashtirish uchun investisiyalarni rejalashtirish va jalb etish;
- 2) kasbiy ma'lumotlar va malakalarni oshirish maqsadida xodimlarni o'qitishni moliyalashtirish;
- 3) xavfsiz mehnat madaniyatini rejalashtirish va amaga oshirish;
- 4) "aqlli" shaxsiy himoya vositalarini rejalashtirish, sotib olish va ulardan foydalanish;
- 5) mehnat xavfsizligini boshqarish sohasida "aqlli" texnologiyalarni rejalashtirish va ulardan foydalanish.

Bu jarayonlar barchasi Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimidagi tashqi va ichki omillari o'zgarishlariga imkon qadar moslashuvchan bo'lishini belgilaydi.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy xususiyatlaridan biri izchillikdir. Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimidagi elementlari o'zaro umumiy aloqada bo'lib, shu bilan birga nisbatan izolyasiyalangan, sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, vaqt o'tishi bilan makonda o'zgarib turadigan umumiy tizimli xususiyatini belgilaydigan ob'ektlar sifatida o'zaro ta'sir qiladi va quyidagi quyi tizimlarini o'z ichiga oladi:

- xodimlarni mehnatni muhofaza qilish talablariga o'rgatish;
- normativ-huquqiy bazasini yaratish;
- tibbiy ko'rikdan o'tkazish;
- xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash;
- mehnat sharoitlarini maxsus baholashni o'tkazish;
- kasbiy xavflarni boshqarish;
- gigiena normalari va standartlarini aniqlash;
- mehnatni muhofaza qilish bo'yicha majburiy talablarga rioya qilish;
- xavfsiz mehnat madaniyatini ta'minlash va boshqalar.

Ilmiy tadqiqot ishlarida jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish asosan matematik modellashtirish usullaridan keng foydalaniladi. Modellashtirish deganda «real ob'ektlardagi xossalarni va tizim ichidagi elementlari o'zaro munosabatlarini maxsus yaratilgan moddiy yoki ideal ob'ekt (modelda, simulasiya)da ko'rsatish» tushuniladi.

Modellashtirishda ommabop usullaridan biri, optimallashtirish jarayonida o'rganilayotgan hodisalar ichida ahamiyatsiz bo'lgan ikkilamchi omillarni chiqarib tashlash asosi hisoblanadi.

**Muhokama.** Muallif, mehnat xavfsizligini boshqarish tizimini baholashda to'rtta modelni (kirish, chiqish, chegaralari va tashqi muhit) birlashtirgan "qora quti" modeli orqali ko'rib chiqishni taklif etadi. Ko'pincha, "qora quti" modeli tizim ichidagi jarayonlar kuzatuvchi uchun noma'lum bo'lganda qo'llaniladi. Bu murakkablik, vaqt xarajatlari va zarur resurslar mavjudligi bilan farq qiluvchi ko'plab omillar bilan izohlanadi. Shu bilan birga "qora quti"

modeli tizim tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini o'rganishga imkonini beradi. Ya'ni, tizim ichki elementlari ishlashi va undan olingan ijobiy natija tufayli tashqi muhitga ta'sirini o'tkazadi.

Ensiklopedik lug'atlarda, “qora quti” modeli ma'lumotni kiritish uchun “kirish”, ichki jarayonlari ishlashi natijalari sifat va miqdor jihatidan aniqlash uchun “chiqish” ga ega. Chiqish holatlari funksional ravishda kirish holatiga bog'liq xolatda deb taxmin qilinadi.

V.I. Razumov va G.D. Boushning ta'kidlashicha, “qora quti” - kirish ( $x$ ), chiqish ( $y$ ), ichki jarayonlar (mavhum) bloki  $f(x)$ laridan iborat bo'lgan chizma bo'lib, u jarayon fizikaviy bilimlarga asoslangan kirish ma'lumotlar bazani tartibga soluvchi, ya'ni kirish ma'lumotiga qarab, uni kuchaytiruvchi yoki zaiflashtiruvchi, ijobiy yoki salbiy yoki teskari aloqa sifatida xarakterlanishi mumkin (1-rasm).



2-rasm. “Qora quti” sxematik modeli

(Manba: Boush G.D. Ilmiy tadqiqot metodikasi)

“Qora quti” modeli mazmuni va mantig'i quyidagi bosqichlardan iborat:

**Birinchi bosqichda**, “qora quti” sxemasida tasvirlangan jarayon, unga kirish, ichki bloki, chiqish va teskari aloqasi bilan xarakterlanadi.

**Ikkinchisi bosqichda**, teskari aloqlari ijobiy va salbiy oqibatlarini almashish imkoniyatlari va xususiyatlarini belgilaydi.

**Uchinchi bosqichda**, jarayonlar bosqichlarga bo'linadi va har biri o'ziga xos “qora quti” bo'lib, ular birgalikda bitta oqim sxemasini tashkil qiladi, bunda oldingi “qora quti” ning chiqishi keyingi “qora quti” ning kirishiga aylanadi.

Olingan natijalarni qo'llash istiqbollari kelsak, ular:

- “qora quti”ning ichki qismlarini gomeostatik metodologiya asosida o'rganish;
- murakkab mexanizmlarni oddiy diagrammalar sifatida tavsiflash;
- o'zini tartibga solish mexanizmlarini va boshqaruv rejimlarining turli ssenariylarini loyihalash va boshqalar.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, tizimdagi o'zgarishlari yoki qayta shakillanishi yoki uzluksiz o'zgarish jarayonlari yoki boshqa resursga aylanish jarayonlari sababchisi, barcha darajadagi (mikro, mezo, makro, mega-) strukturaviy elementlari orasidagi o'zaro bog'liqligi va o'zaro aloqalarida, chunki bunday rivojlanish yagona

jarayonni tashkil qiladi. Bu jarayonlar, ikki yo'nalishda sodir bo'ladi:

**birinchisi** - gorizontal, tizimdagi miqdoriy xarakteristikalari asosan o'zgarganda (modernizatsiya)

**ikkinchisi** - vertikal ravishda, asosan sifat jihatidan. xususiyatlari o'zgarganda (transformatsiya jarayoni)


Shunday qilib, muallifning fikriga ko'ra tizimdagi o'zgarishlar, tashqi omillar o'zgarishidagi tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, bu keskin sakrash, burilish, o'zgarish va boshqa xodisalar sodir bo'lishini anglatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, transformatsiyalanish jarayonida korxonada mehnat xavfsizligini boshqarish tizimiga texnik, sanitariya-gigienik, tashkiliy, iqtisodiy, ergonomik, ijtimoiy va maishiy, psixofiziologik, inson omili kabi boshqa bir qancha ichki omillar ham ta'sir qiladi.

Mehnat xavfsizligi boshqarish tizimining tashqi muhitiga, tashqi iqtisodiy-ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnikaviy, huquqiy, texnogen, tabiiy, ekologik, investision, innovatsion, axborot va bozor omillari bilan belgilanadigan zamonaviy iqtisodiyot sharoitlarini kiritish mumkin.

Mehnat xavfsizligini boshqarish konsepsiyasi- Mehnatni muhofaza qilish tizimidagi elementlarini kompleks o'zgartirishidagi uzluksiz jarayon bo'lib, mazmuni, vaqti, resurslar, ijobiy natija va maksimal samaradorlik ko'rsatkichlari bilan Mehnatni muhofaza qilishda qisqa va uzoq muddatli maqsadlariga erishish istiqbollari bilan mikro va makroiqtisodiy darajada tashkiliy-ishlab chiqarish-texnik-texnologik, iqtisodiy-ijtimoiy va boshqaruv tuzilmalarini rivojlantirishda tashqi va ichki muhitlaridagi o'zgaruvchan jarayonlarga o'zaro bog'liqdir.

Taklif etilgan "qora quti" modeli o'rganilayotgan mehnat xavfsizligini boshqarish tizimidagi ko'plab ma'lumotlar o'zgaruvchan omillarga (elementlarga) bog'liqligini ko'rsatadi (2- rasm).



**3- rasm. “Qora quti” modelida mehnatni muhofaza qilish tizimidagi jarayonlar**  
(Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzilgan)

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimiga kirish (X) ma'lumotlari bu tizim transformatsiyalanish jarayonida foydalaniladigan resurslardir. X1, X2, X3, X4, X5, X6, XN – mehnat xavfsizligini boshqarish tizimiga kirish ma'lumotlari ko'rsatilgan bo'lib, quyidagilarni bildiradi:

- X1 - mehnat resurslari;
- X2 - moddiy-texnika resurslari;
- X3 - tashkiliy va boshqaruv resurslari;
- X4 - axborot resurslari;
- X5 - moliyaviy resurslar;
- X6 - vaqtinchalik resurslar.
- XN- boshqa resurslar

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimidan chiqish (U) ma'lumoti tizimiga kiritilgan ma'lumotlarda o'zgartirishlar samaradorligini belgilovchi ko'rsatkich:

- U1 - jarohatlar darajasi;
- U2 - kasbiy kasallanish darajasi;
- U3 - mehnat unumdorligi;
- U4 - ishlab chiqarish samaradorligi (foyda, rentabellik);
- U5 - mehnat sharoitlari;
- U6 - xavfsiz mehnat madaniyati.
- UN- boshqa xodisalar.

Chiqish ma'lumotlari mehnat xavfsizligi boshqarish tizimida miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Tizimiga tashqi ta'sirlar uning elementlarida tashkiliy, ishlab chiqarish, texnik, texnologik, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni takomillashtirish va rivojlantirish jarayonidagi o'zgarishlarida ifodalangan transformatsiyalanish jarayonida namoyon bo'ladi.

**Xulosa.** Zamonaviy iqtisodiyotda mehnat xavfsizligini boshqarish jarayonini “qora quti” modelida tahlil qilish jarayonida muallif quyidagi xulosaga keladi:

- nafaqat mehnat xavfsizligini boshqarish transformatsiya, balki insoniyat jamiyati hayotida sifat jihatidan yangi bosqich, rivojlanish va takomillashtirish uchun yangi imkoniyatlar ochadi;
- barcha ijtimoiy-iqtisodiy va me'yoriy-huquqiy hodisalarga ta'sir qiluvchi o'zgarish omillari murakkabligi ta'sirida kechadigan Mehnatni xavfsizligini boshqarish tizimidagi ob'ektiv o'zgarishlaridagi jarayoni ko'rib chiqishga imkon beradi;
- zamonaviy iqtisodiyotdagi ob'ektiv sharoitlari fonida mehnat xavfsizligini boshqarish tizimini maqsadli o'zgartirish jarayonlarini belgilaydi.
- mehnat xavfsizligini boshqarish tizimni istiqbolli rejasini ishlab chiqish uchun uning monitoringini olib borish hamda qisqa va uzoq muddatli bashoratlash imkoniyati yaratadi.

Tadqiqotda “qora quti” modelida mehnat xavfsizligini boshqarish mexanizmini tushunish, kirish (X) elementi asosida "qora quti" dagi muhitda mehnat xavfsizligini boshqarish omillari o'zgartirish jarayonlari va chiqish (U) natijalarini baxolashda foydalanildi va tizimidagi tashqi va ichki jarayonlarni o'zgartirishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun ham,

davlat hokimiyati organlari uchun ham kutilayotgan natijalar olindi.

Shuningdek, zamonaviy raqamli iqtisodiyot muhitda mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, innovasiya, investitsiyalarni jalb etish, axborot oqimini nazorat qilish, Mehnatni muhofaza qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va eng xavfli ish joylarini robotlashtirishni aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot xulosalari va natijalari “qora quti” modelning tarkibiy qismlarini batafsil ko'rib chiqish orqali Mehnat xavfsizligini boshqarish mexanizmlari o'zgartirishni chuqurroq o'rganish uchun ham, o'zgartirishdagi turli ssenariylarini yanada modellashtirish uchun ham foydalanilishi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Kircher Paul W and R N Mason Introduction to Enterprise A Systems Approach Los Angeles Melville Publishing. - Co., 1975.-PP. 45-48.
2. Hoos Ida R. Systems Analysis in Public Polia. - Chicago University of Chicago Press, 1976. - P. 34.
3. Усикова О.В. Экономическое обеспечение охраны труда: теория, методология, практика // Экономика. Профессия. Бизнес. 2019;(1):65-70.
4. Петрашень Е.П. Формирование модели креативной образовательной среды методами «черный ящик» и «компенсационный гомеостат» // Известия РГПУ им. А.И. Герцена. 2022;(203):228-240.
5. Данелян Т.Я. Общая теория систем: монография. М.: МИСИ, 2015. 304 с.
6. Локтионов М.В. Богданов А.А. как основоположник общей теории систем // Философия науки и техники. 2016;21(3):80-96.
7. O'zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuni
8. Самарская Н.А. Трансформация охраны труда в категориях универсальной схемы взаимодействия элементов в системе // Социально-трудовые отношения. 2022;4(49):73-81.
9. Городнова Н.В., Самарская Н.А. Социально-экономические аспекты охраны труда в условиях цифровой трансформации // Экономика труда. 2023;10(1). DOI: 10.18334/et.10.1.116601.
- 10.Ревтова Е.Г. Моделирование кредитного процесса / Е.Г. Ревтова // Вестник Волгоградского государственного университета. Экономика. 2021;23(4):205-215.
- 11.Нарзуллаев К.С. Диагностирование автомобильного двигателя аналитическим методом «черный ящик» // Science Time. - 2017;2(38):244–247.
- 12.Кузнецова А.В., Сенько О.В., Кузнецова Ю.О. Преодоление проблемы «черного ящика» при использовании методов машинного обучения в медицине // Врач и информационные технологии. 2018;(51):74-80.

## ISHLAB CHQARISH XONALARI HAVOSINI OPTIMALLASHTIRISH UCHUN KONDITIONER USKUNASINING ISHINI QIYOSIY TAHLIL QILISH VA UNI MODELLASHTIRISH

*L.Ashurova*

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Mehnat muhofazasi va  
texnika xavfsizligi" kafedrasida assistenti*

*E-mail: [ashurovalaylo83@gmail.com](mailto:ashurovalaylo83@gmail.com)*

**Annotasiya.** Ishlab chiqarish xonalarida mehnat sharoitlarini optimal holatini ta'minlash uchun konditsioner uskunasining ishlash prinsipi kompyuter "Ansys" dasturiy ta'minoti asosida matematik modellashtirish usullarida qiyosiy tahlil qilindi. Asosiy e'tibor bir nechta multifizik jarayonlarni simulyatsiya qilish dasturlarida qo'llaniladigan cheklangan elementlar usuliga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** qiyosiy tahlil, axborotni qayta ishlash, dasturiy ta'minot, matematik modellashtirish, mehnat sharoitlari, mehnatni muhofaza qilish.

## COMPARATIVE ANALYSIS AND SIMULATION OF AIR CONDITIONING EQUIPMENT FOR OPTIMIZING AIR IN WORK PREMISES

*L.Ashurova*

*Assistant Department of Ecology and Labor Safety of Karshi  
Engineering-Economics Institute*

*E-mail: [mail.runurilla.mahmatqulov@mail.ru](mailto:mail.runurilla.mahmatqulov@mail.ru)*

**Abstract.** In order to ensure optimal working conditions in production premises, a comparative analysis of the operating principle of climate control equipment was carried out using mathematical modeling methods based on the Ansys computer software. The focus is on the finite element method used in several multiphysics simulation programs.

**Keywords:** comparative analysis, information processing, software, mathematical modeling, working conditions, labor protection.

**Kirish.** *Mavzuning dolzarbligi:* Inson sivilizatsiyasi rivojlanishidagi fan taraqqiyotida mehnat sharoitlari va sanoat xavfsizligini o'rganishning ko'plab usullari va modellari mavjud bo'lib, ulardan ba'zilar allaqachon ma'lum bo'lgan matematik formulalar, diagrammalar, jadvallar va boshqa geometrik yechimlar yordamida ma'lum bir xususiyatlari va parametrlarni hisoblashga asoslangan. Ushbu usullardan biri - eksperimental tadqiqotlar, masalan, xonani qisqartirilgan modelini yoki sanoat korxonasi maketini yaratish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish uchun muayyan shartlarni qo'llashga asoslangan. Ammo bu qimmat usul bo'lib, tafsilotlarga katta e'tibor talab qiladigan va yuqori jismoniy mehnat va xarajatlarini talab

qiladi. Shu nuqtai nazardan ham ushbu mavzu inson hayoti faoliyati va atrof muhit musoffoligida dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning maqsadi – mehnatni muhofaza qilish tizimini boshqarish va uni baholashda sodir bo‘ladigan muammolarni kompyuter “Ansys” dasturiy ta’minot asosida simulyatsiya usulida modellashtirish va mummolarni yechimini aniqlash uchun takliflar tayyorlash.

*Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:*

- iqtisodiy-ijtimoiy tizimda mehnatni muhofaza qilish tizimi o‘rni va rolini aniqlash;
- tizim tushunchasi va uni mehnat xavfsizligini boshqarshni baholashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqish;
- mehnat xavfsizligini boshqarsh tizimiga kompyuter “Ansys” dasturiy ta’minoti asosida simulyatsiya usulida modellashtirish va mummolarni samarali yechimini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Zikr etilgan mualliflar fikriga ko‘ra, kompyuter texnologiyalari va amaliy matematika rivojlanishi, texnosferadagi vaziyatni tahlil qilish, muayyan vaziyatlar rivojlanish dinamikasini bashoratlashdagi maqsadga erishishning eng maqbul usuli-bu modellashtirishdir. Muallif maqolasida foydalanigan model ham shular jumlasidandir.

Muallif tomonidan ishlab chiqarish xonalarini shamollatish natijasida ishlab chiqarish binolaridagi ifloslangan o‘ta qizigan yoki sovigan havo toza, sovutilgan yoki qizdirilgan havo oqimi bilan to‘xtovsiz almashtiriladi usullar modellashtirildi .

Ishlab chiqarish xonasida umumiy havo almashtirish uchun talab etiladigan shamollatkich ish unumdorligi quyidagicha aniqlanadi:

$$L=ks, m^3/s \quad (1)$$

bunda, L – shamollatkichning ish unumdorligi,  $m^3/s$ ; k - havo almashinish parragi, S – xona hajm,  $m^3$ .

Binolarni shamollatish 2 usulda: tabiiy va sun‘iy (mexanik) ravishda amalga oshiriladi.

Ma’lumki, issiq havo yuqoriga qarab ko‘tariladi, sovuq havo esa pastga yo‘naladi. Tabiiy shamollatish tashqaridan bino ichiga kirgan sovuq havo, bino ichidagi issiqlik hisobiga issiqlikni qabul qilib, isigandan keyin hajmi kengayganligi sababli, yengillashib binoning yuqori tomonlariga qarab harakatlanadi va biz binoning yuqori qismida havoning chiqib ketishi uchun quvur yoki tirqishlar hosil qilsak, unda biz havoni tashqariga chiqarib yuborish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Shuning uchun ko‘p miqdorda issiqlik ajralib chiqaruvchi sexlarda sovuq havoni poldan 4 m balandlikdan yuborish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar tashqarida havo nihoyatda issiq 30-40 °S atrofida bo‘lsa, tabiiy shamollatishga ehtiyoj oshadi [1].

Tabiiy shamollatishni hisoblash, asosan, ma’lum isish hisobiga yengillashib, binoning yuqori qismlarida yig‘ilgan ortiqcha bosimni, havo chiqarib yuborish joyidan chiqarib yuborishga mo‘ljallangan. Faraz qilaylik, ma’lum ko‘ndalang kesimga ega bo‘lgan sexni umumiy havo bosimi asosida belgilab olsak, ma’lum balandlikka ko‘tarilgan havo isib, xona haroratiga tenglashgan chizig‘i 0. Shu 0 chiziqdan yuqori tomonda bosim ortiqcha bo‘lib, past

tomonda birmuncha kam bo'lishi isbot talab qilmaydi.

Hosil bo'lgan ortiqcha bosim balandlik hisobiga bo'lganligidan, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$R = N(m-u), \quad (2)$$

bunda,  $N$  - quyi havo kirish joyi bilan yuqoridagi havo chiqish joyi orasidagi balandlik,  $m$  – tashqaridagi havoning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ,  $u$  – ichkaridagi havoning zichligi,  $\text{kgm}^3$ .

Ishlab chiqarish korxonalarida qizdirish jarayonlari bo'lganda zaharli moddalar ruxsat etilgan konsentratsiya  $100 \text{ mg/m}^3$  va undan ortiq bo'lganda, so'rish tezligi  $0,3 \dots 0,7 \text{ ml/sek}$  talab etiladi. Zararli va zaharli moddalar ruxsat etilgan konsentratsiyasi  $100 \text{ mg/m}^3$  dan kam va qizdirish jarayonlari mavjud bo'lganda, havoning so'rish tezligini  $0,7 \dots 1,5 \text{ m}^3\text{sekdan}$   $3 \dots 5 \text{ m/sek}$  gacha oshirish mumkin. Havo oqimi  $25^\circ\text{C}$  gacha qizdirilgan va issiqlik ko'p ajralib chiqadigan joylarda ish xonalariga  $2 \dots 4 \text{ ml/sek}$  tezlik bilan yuboriladigan havo oqimi yuboriladi.[1].

**Muhokama.** Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarni tahlil qilish uchun maxsus zamonaviy dasturlarda turli virtual modellarni yaratish orqali natijalarni ancha tez va samaraliroq olish mumkin. Ushbu yondashuv mehnatni muhofaza qilish va boshqarish bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilishni o'z ichiga oladi [3-4]:

- iqlim sharoitini baholash;
- uskunalarning atrof-muhitga va odamlarga ta'sirini aniqlash;
- tebranishlar va shovqinlarning inson sog'ligiga ta'sirini aniqlash;
- atrof-muhit va ob-havoning turli parametrlarga ta'sirini aniqlash va boshq.

Kompyuter simulyatsiyasi usuli yordamida ko'plab muammolarni yechish mumkin, shuning uchun bu usul kompyuter dasturlari doirasida paydo bo'lgan va keng rivojlanmoqda. Ularni bir nechta mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin:

- muammoni hal qilish usuli;
- funktsionallik va h.k.

Ayrim dasturlar tor doiradagi muammolarni hal qilsa, boshqalari esa ko'p funktsiyali bo'lib, ko'plab omillar va bir nechta sohalarni bir vaqtning o'zida o'rganish bilan murakkab muammolarni hal qiladi. Bunday dasturlarga "Ansys" dasturini kiritishimiz mumkin.

Masalani yechish usuliga ko'ra, dasturlar asosan yechishda qo'llaniladigan matematik usullarning cheklangan elementlar usuli, sirpanish usuli, yuqori chegara usuli va boshqa usullar qo'llaniladi. Bu usullar yordamida, mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qilish uchun dasturiy ta'minot tizimlaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.


Ishlab chiqarish xonalarida iqlim sharoitlarini o'rganish uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish samaradorligi aniqlash lozim. Buning uchun esa:

- 1- ishlab chiqarish xonalarida muayyan sharoitlarni aniqlash uchun mikroiklim muhitini nazorat qiladigan uskunalarni baholash;
- 2- atrof-muhit va iqlim sharoitlari mehnat sharoitlariga ta'sirini tahlil qilish vazifalari qo'yiladi.

Bu vazifalarni bajarishda har biri muayyan muammoni hal qilish uchun bir qator


simulyatsiya usullari o'tkazildi.

Birinchi modellashtirish- konditsioner uskunasi imkoniyatlari o'rganiladi va mehnat sharoitlarini yaxshilash uchun uskunalarni joylashishini optimallashtirish amalga oshirildi. Turli xonalardagi turli qatlamlardan havo harorati olinadi.



**1-rasm. Turli qatlamlarda xona harorati**

Bunday holda, birinchidan, havo haroratni umumiy baholash amalga oshiriladi, ikkinchidan iqlimni nazorat qiladigan uskunadan chiqayotgan havo harakatidagi yo'nalish va uning tezligi aniqlanadi. Bunday paytda dasturiy ta'minot tizimlari bu vazifani bajara oladi. Yana bir muhim vazifa mikroiklim holatini mehnat sharoitlariga ta'siri o'rganildi. Bundan tashqari, dastur imkoniyatlarini baholash uchun ochiq oyna holatda vaziyat simulyatsiya qilindi va bino tashqarisidagi shamol xona ichki sharoitga qanday ta'sir qilishi o'rganildi (2-rasm).




**2-rasm. Xonadagi havo massalarining harakat tezligi**

Bunday holda, havo harakatidagi harorati emas, uning tezligidagi parametrlarini o'rganish vazifasi qo'yiladi. Tadqiqot natijasiga ko'ra, kuchli shamolda ochiq deraza va ochiq eshik o'rtasida to'g'ri chiziqda bo'lsa, inson sog'lig'iga sezilarli darajada zarar yetkazishi mumkinligi aniqlandi.

Zamonaviy texnologiyalar va cheklangan elementlar usullaridan foydalangan holda kompyuterda modellashtirish ansys dasturiy ta'minot asosida ishlab chiqarish xonalarda

oʻrnatilgan konditsionerlar joylashuvi va soni xona xajmiga, havo oqimining harorati va yoʻnalishiga qanday taʼsir qilishini koʻrib chiqamiz.


Anʼanaviy sanoat binolari xonasiga ikkita issiq havo va ikkita sovuq havo beradigan uskunasi oʻrnatimiz. Shu bilan birga ikkita yoqilgan sovuq havo uskunasi xonadagi havoning umumiy haroratiga va havoning harakatiga taʼsir qilish sxemasini aniqlash variantini koʻrib chiqamiz va natijalari kompyuter “Ansys” dasturiy taʼminoti olingan modellashtirish natijalari- mos ravishda xonadagi havo harakati tezligi va yoʻnalishini koʻrsatadi.(3, 4 va 5-rasmlar).



**3-rasm. Sovuq havo qatlamidagi tezligi**



**4-rasm. Issiq havo qatlamidagi tezligi**




**5-rasm. Havo qatlami harorati**

Bitta konditsioner ishlashi natijasida oʻrnatilgan oʻrtacha harorat  $17,8^{\circ}\text{S}$  , ikkala konditsioner yoqilganda esa  $16,1^{\circ}\text{S}$  ni tashkil qiladi [6].

Koʻrib chiqilayotgan hollarda alohida havo oqimlari harakat yoʻnalishi oʻxshashdir. Havo

harorati ko‘rib chiqilayotgan uchastkalar bo‘ylab deyarli teng taqsimlanganligini ko‘rsatadi, issiq havo manbai mavjud bo‘lgan hududlar bundan mustasno (6-rasm)



**6-rasm. Xonadagi haroratni taqsimlash**

Shunday qilib, modellashtirish shuni ko‘rsatdiki, bunday xonada bir vaqtning o‘zida ikkita konditsionerdan foydalanishga hojat yo‘q, chunki bitta konditsioner qulay ish haroratini o‘rnatish vazifasini bajara oladi. Manbalardan issiqlik chiqarish harorati yoki intensivligi oshganda, shuningdek, sovutish intensivligi pasayganda, ikkinchi konditsionerni yoqish mumkin bo‘ladi.


Xonani sovutadigan konditsioner va ish joyini tabiiy shamollatadigan eshigi bor xonada o‘zidan issiqlik chiqaradigan ikkita mashina (o‘rnatilgan ish xonasining mikoriqlim sharoitini ko‘rib chiqamiz.

Mehnat xavfsizligi va qulay ishni ta‘minlaydigan sharoitlarni yaratish uchun optimal rejimni yaratish uchun Ansys dasturiy ta‘minotda bir qator kompyuter simulyatsiyalari o‘tkazildi [5],

Havo ta‘minoti tezligi va haroratida farq qiluvchi iqlim nazorati uskunalarida bir nechta ish rejimlari ko‘rib chiqildi.


1.  $V=9$  m/s,  $T=16^{\circ}\text{S}$ ;
2.  $V=5$  m/s,  $T=20^{\circ}\text{S}$ ;
3.  $V=9$  m/s,  $T=20^{\circ}\text{S}$ ;
4.  $V=5$  m/s,  $T=16^{\circ}\text{S}$ .

Tanlangan rejimlar uchun tezlik ko‘rsatkichlari (7-rasm) va harorat (8-rasm) baholandi. Issiqlik manbasidagi harorati  $31^{\circ}\text{S}$  tashkil etdi.




**7-rasm. Ko‘rib chiqilayotgan xonaning uch o‘lchovli modeli:**

1 - konditsioner bloki; 2 – issiqlik manbalari; 3 - kirish (chiqish) eshigi




8-rasm. Konditsioner turli xil rejimlarda xonadagi havo harakat tezligi



9-rasm. Konditsioner turli xil rejimlarda xona harorati

Xonadagi havo harorati konditsioner ish rejimiga qarab o'zgaradi va xonaning turli joylarida u pastroq (konditsioner zonasi ostida) yoki undan yuqori (ishlab chiqarish hududida) bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan xonadagi o'rtacha harorat qiymatlari quyidagicha bo'lishi mumkin(10-rasm).



10-rasm. O'rtacha harorat diagrammasi

Modellashtirishda ko'rsatilgandek, eng qulay ish sharoitlari iqlim nazorati havo harorati

16°S va 9 m/s havo -harakati tezligida sodir bo‘ladi. Dastlabki havo oqimi tezligiga qarab, uning keyingi harakat yo‘nalishi o‘zgaradi.

Bu holat konditsioner uskunasini kerakli standartlarga moslashtirishga imkon beradi.

**Xulosa.** Zamonaviy glabollashuv jarayonida mehnatni muhofaza qilish va uni boshqarishni simulyatsiya usulida modellashtirish natijalariga ko‘ra muallif quyidagi xulosaga keladi:

Kompyuterda simulyatsiya usulidan foydalanish turli xil muammolarni hal qila oladigan barcha turdagi tadqiqotlarni o‘tkazish uchun kerakli ma’lumotlarni tezda olish imkonini beradi. Muammolarni shu tarzda hal qilish mehnat sarfini sezilarli darajada kamaytiradi va ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshiradi, bu esa sezilarli iqtisodiy samara beradi.

Shuningdek, kompyuterda modellashtirish nafaqat ishlab chiqarishda, balki ofis binolarida va binodan tashqarida sanoat xavfsizligi va mehnat sharoitlarini o‘rganish bilan bog‘liq ba’zi muammolarni hal qilish uchun mos ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida ishlab chiqarish xonalaridagi havo haroratini optimallashtirish uchun konditsioner uskunasini ishlash prinsiplari kompyuterdagi Ansys dasturiy ta’minotda simulyatsiya usullarida tekshirildi va xonadagi havo hararoti havo tezligiga bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, konditsioner uskunasini kerakli standartlarga moslashtirishga imkon beradigan chora tadbirlari yuzasidan takliflar ishlab chiqildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Xolbayev B.M., Raximov O.D., Maxmatqulov N.I. Hayot faoliyati xavfsizligi. Darslik (1-qism). – T.: «Voris–nashriyot», 2020. 304 b.
2. Maxmatqulov N.I. Matematik modellashtirish asosida texnosfera xavfsizligini baholash. Monografiya. – T.: «Voris–nashriyot», 2022, 166 – b.
3. Шишкина П.А. Математическое моделирование и сравнительный анализ работы оборудования для обеспечения комфортной температуры в производственном помещении // Известия Тульского государственного университета. Технические науки. 2020. Вып. 10. С. 276-279.
4. Чубова Й.В. Анализ этапов внедрения системы управления охраной труда // Известия Тульского государственного университета. Технические науки. 2020. Вып. 7. С. 272-278.
5. Вайсел А.А., Сиренко Й.Р., Гаврюхина А.В. Анализ программного комплекса для расчёта гидродинамических протессов в водоснабжении // Известия Тульского государственного университета. Технические науки. 2019. Вып. 3. С. 102-105.
6. Шишкина А.А. Аналитический метод выбора климатического оборудования в помещении промышленного назначения//Известия Тульского государственного университета. Технические науки. 2020. Вып. 12. С. 329-332.

7. Choriyev I.N. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi Darslik (1-qism). 5640200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan. T.: «Voriz–nashriyot», 2023. 397 b

## НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ПРОСТРАНСТВЕННЫХ ПРЕДСТАВЛЕНИЙ СТУДЕНТОВ В ОБУЧЕНИИ ИНЖЕНЕРНОЙ ГРАФИКИ

*M.P. Radjabov, F.X. Boymuratov*

*Karshinskiy inzhenerno-ekonomicheskiy institut*

*E-mail: [farrux.boymuratov@mail.ru](mailto:farrux.boymuratov@mail.ru)*

**Аннотация.** В статье рассматриваются специальные методы развития пространственных представлений студентов в обучении инженерной графики. Обсуждаются вопросы о сущности научно-методических основ развития пространственных представлений студентов в обучении инженерной графики.

**Ключевые слова:** инженерная графика, научно-методические основы, специальные методы, пространственное представление, лекция, практические занятия, семинары, головоломки, индивидуальный подход.

## SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS SPATIAL CONCEPTS IN TEACHING ENGINEERING GRAPHICS

*M.R. Radjabov, F.Kh. Boymuratov*

*Karshi Engineering-Economic Institute*

*E-mail: [farrux.boymuratov@mail.ru](mailto:farrux.boymuratov@mail.ru)*

**Abstract.** This article discusses special methods for developing students' spatial understanding in teaching engineering graphics. Questions about the essence of the scientific and methodological foundations for the development of students' spatial concepts in teaching engineering graphics are discussed.

**Keywords:** engineering graphics, scientific and methodological foundations, special methods, spatial representation, lecture, practical classes, seminars, puzzles, individual approach.

**Введение.** Пространственное представление является одним из важнейших навыков в обучении инженерной графики. Оно позволяет студентам лучше понимать трехмерные объекты и конструкции, а также уметь создавать их на чертежах.

Научно-методические основы развития пространственных представлений в обучении инженерной графики включают в себя использование специальных методик, которые позволяют студентам развивать свои навыки в этой области.

**Анализ литературы и методы.** Одной из таких методик является использование трехмерных моделей, которые позволяют студентам лучше понимать принципы работы различных механизмов и конструкций. Также можно использовать специальные программы, которые позволяют создавать и редактировать трехмерные модели [1,2].

Важно также учитывать индивидуальные особенности каждого студента и подбирать методики обучения, которые наиболее эффективны для каждого конкретного случая. Например, некоторым студентам может быть сложно воспринимать трехмерные объекты на экране компьютера, поэтому им может потребоваться дополнительная практика в создании реальных объектов [3].

Кроме того, важно использовать различные формы обучения, такие как лекции, практические занятия и семинары. На практических занятиях студенты могут применять свои знания и навыки на практике, что помогает им лучше усваивать материал.

Также можно использовать методики, которые позволяют студентам развивать свое пространственное представление в повседневной жизни. Например, можно предложить студентам решать головоломки и задачи, которые требуют от них пространственного мышления.

В целом, развитие пространственных представлений является важным аспектом в обучении инженерной графики. Научно-методические основы развития этих навыков должны быть ориентированы на практическое применение знаний и навыков, а также учитывать индивидуальные особенности каждого студента.

Сущность научно-методических основ развития пространственных представлений студентов в обучении инженерной графики заключается в использовании специальных методик и инструментов, которые помогают студентам развивать свои навыки в этой области. Это может включать использование трехмерных моделей и специальных программ, а также различных форм обучения, таких как лекции, практические занятия и семинары [5]. Важно также учитывать индивидуальные особенности каждого студента и подбирать методики обучения, которые наиболее эффективны для каждого конкретного случая [4]. Кроме того, методики развития пространственных представлений могут включать использование задач и головоломок, которые требуют от студентов пространственного мышления. В целом, научно-методические основы развития пространственных представлений в обучении инженерной графики направлены на развитие практических навыков и учет индивидуальных особенностей каждого студента:

- 1) Использование трехмерных моделей и специальных программ для визуализации и создания проектов.
- 2) Проведение лекций с использованием примеров из реальной жизни, чтобы продемонстрировать, как инженерная графика используется в различных областях.
- 3) Практические занятия, которые позволяют студентам применять свои знания на практике, создавая реальные проекты.

- 4) Семинары, на которых студенты могут обсуждать свои проекты и задавать вопросы преподавателям и другим студентам.
- 5) Использование задач и головоломок, которые требуют от студентов пространственного мышления и развивают их навыки.
- 6) Индивидуальный подход к каждому студенту и использование методик обучения, которые наиболее эффективны для каждого конкретного случая.
- 7) Организация экскурсий и посещений предприятий, где студенты могут увидеть, как инженерная графика используется на практике.

Результаты, которые можно получить при применении методов обучения инженерной графике, зависят от целей обучения и уровня подготовки студентов. В целом, правильно организованное обучение инженерной графике может помочь студенту освоить навыки создания и чтения технических чертежей, моделирования и визуализации трехмерных объектов, а также разработки проектной документации. В результате обучения студенты могут стать более компетентными в своей профессиональной деятельности и улучшить свои шансы на рынке труда.

*В обучении инженерной графики могут использоваться различные методы, включая:*

1. Лекции - для теоретического изучения основных принципов и правил инженерной графики;
2. Практические занятия на компьютере с использованием специализированного программного обеспечения - для отработки навыков работы с графическими программами;
3. Работа в группах - для обмена опытом и коллективного решения задач;
4. Индивидуальные консультации - для корректировки ошибок и углубленного изучения материала;
5. Проектная деятельность - для применения полученных знаний на практике и развития творческих способностей.

**Заключение.** Таким образом, можно сделать вывод о том, что использование интерактивных методов обучения является эффективным способом развития пространственных представлений у студентов технических вузов. Это позволяет им лучше усваивать материал и успешно применять свои знания в будущей профессиональной деятельности.

## **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

1. Абрамова О.В., Хасанов Р.Р. Развитие пространственных представлений у студентов технических вузов // Вестник Московского государственного технического университета им. Н.Э. Баумана. Серия «Естественные науки». – 2016. – № 4. – С. 59-68.

2. Головина Е.В., Шабалина И.Н. Формирование пространственных представлений у студентов технических специальностей // Инновации в образовании. – 2017. – № 1 (27). – С. 61-65.
3. Кузнецова Н.В., Кузнецова Е.А., Лоскутова Н.В. Развитие пространственных представлений у студентов технических вузов на основе использования компьютерных технологий // Современные технологии в науке и образовании. – 2018. – № 3 (23). – С. 15-20.
4. Соколова О.Ю., Леонтьева И.В., Кузнецова Н.В. Формирование пространственных представлений у студентов технических специальностей в процессе обучения инженерной графике // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1. – С. 79-83.
5. Чернышева Н.В., Казанцева Е.В. Формирование пространственных представлений у студентов технических вузов на основе использования интерактивных методов обучения // Инновации в образовании. – 2020. – № 2 (36). – С. 45-49.